

# FUQAROLIK JAMIYATI

## ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
9-sinf o'quvchilari uchun  
darslik sifatida tasdiqlangan*

Toshkent

2016

UO‘K: ...

KBK: ...

Fuqarolik jamiyati asoslari: 9-sinf uchun darslik.

V.H.Qo‘chqorov, A.T.Zamonov, N.K. Ismatova

- Toshkent: .....016, - 96 b

UO‘K: ...

KBK: ...

ISBN ...

**Mas’ul muharrirlar:**

s.f.d. prof., A.J.Xolbekov, t.f.n., dots. Z.A.Saidboboyev

N.Ismatovanning uslubiy tahriri va pedagogik qurilmalari asosida tayyorlangan

**Eksprmentator o‘qituvchi.**

Toshkent shahar Sergeli tumani 303-umumta’lim maktabining “Davlat va huquq asoslari” fani o‘qituvchisi M.Ahmedova.

**Taqrizchilar:**

Tarix fanlari doktori - O’ Mavlonov

Yuridik fanlari doktori - G.Malikova

Siyosiy fanlari doktori - T.Alimardonov

Yuridik fanlari nomzodi - H.To‘ychieva

Tarix fanlari nomzodi - S. Tillaboyev

Ushbu darslik Respublika ta’lim markazi qoshidagi “Tarix”, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar turkumiga kiruvchi fanlar“, “Davlat va huquq asoslari“ Ilmiy metodik kengashining 2016-yil 5-yanvardagi qo‘shma yeg‘ilish qaroriga ko‘ra tajriba-sinovga tavsiya etilgan.

– T.: ..... 2016, - 96 b.

ISBN

© “2016

© V.Qo‘chqorov, A.T.Zamonov, N.K.Ismatova

## Mundarija

Kirish.....	4 bet
Jamiyatning tarixiy shakllari.....	6 bet
Fuqarolik jamiyati g‘oyasini shakllantirgan tarixiy shart-sharoitlar.....	14 bet
Qadimgi G‘arb va Sharq mutafakkirlarining ado- latli jamiyat haqidagi ta’limotlari.....	24 bet
Amir Temur – buyuk davlat va adolatli jamiyat asoschisi.....	32 bet
Fuqarolik jamiyatining rivojlanish tarixi.....	45 bet
Davlat va jamiyatning farqi, mushtarak jihatlari. Fuqarolik jamiyatida davlat.....	56 bet
Fuqaroning burch va mas’uliyati.....	68 bet
Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning jamiyat rivojidagi ahamiyati.....	81 bet
Glossariy.....	91 bet

## KIRISH

Tezlik va o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globalashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham hayotimizga kirib kelmoqda. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash maqsadida ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalarga ega bo'lgan jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Shu ma'noda, har bir inson erkin va farovon, hayot kechirishini niyat qiladi. Buning natijasida dunyo miqyosida yangicha qarashlar, insonlarning jamiyatni mustaqil boshqarishga va siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga intilishlari kuchayib borayapti.

Shunday ekan, jamiyat hayotida, uning bag'rida yashab, unga nisbatan befarq bo'lmaslik, "kim edigu, kim bo'ldik" va bizni qanday yangi marralar kutayotganini his etish, qolaversa, mustaqillikni mustahkamlashga hissa qo'shish, jamiyatning har bir a'zosini faol hayotiy pozitsiyasiga aylanishi kerak.

Tabiiyki, fuqarolik jamiyati va uni vujudga kelishi hamda shakllanib borishi, oddiy jarayon bo'lmay, insoniyat taraqqiyoti va milliy davlatchilik natijasidir.

Fuqarolik jamiyati G'arbda shakllangan, ammo uning negizlari Sharqqa borib taqaladi va bu ikki dunyoning o'zaro madaniy-ijtimoiy tafakkur dunyosi ta'sirida jamiyat a'zolarining ozod va erkin yashash tarzi dunyoga keldi va vaqt o'tgan sayin rivoj topib taraqqiy etdi.

G'oya va fikrlar asosida bilimlar shakllanadi. Darslikda adolatli, fozil jamiyat, unda insonlarning qanday bo'lishi, qonun va qonun ustuvorligi, erkinlik va ma'rifatlilik kabi tushunchalar inson-

parvar jamiyatning asosi ekanligi yoritilgan. Bunda G‘arb va Sharq allomalarining asar va qarashlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida o‘z ifodasini topgan.

Aynan ushbu maqsad yo‘lida bir tomondan mavzular ketma-ketligi, ikkinchi tomondan berilayotgan materiallar va uni o‘quvchi ongida shakllanish mexanizmi, metodikasiga e‘tibor qaratilganligidadir. Tabiiyki, ta‘lim-tarbiya uyg‘unligi maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tarixiy-badiiy va ilmiy asarlardan, jamiyatshunos olimlar fikridan parchalar keltirish orqali mavzular yoritilgan.

O‘ylaymizki, mualliflar ijodiy yondashgan holda faollashtiruvchi savol va topshiriqlar, test va mavzu doirasida berilgan materiallar o‘rinli keltirilgan bo‘lib, darslikni oson va tushunarli bo‘lishga xizmat qiladi degan umiddamiz. Kitobni ilmiy nazariy va ilmiy metodik jihatdan qiziqarli bo‘lishiga hissa qo‘shgan professor o‘qituvchi va pedagoglarga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.


**Aziz o‘quvchilar!** mavzuni boshlashdan avval, faollashtirish uchun berilgan savol va topshiriqlarni bajaring. Savollarga javob berishda misollarni o‘z hayotingizdan keltirishga harakat qiling. Mavzuni boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz bilan bog‘lang. Buni amalga oshirishda «ijodiy faoliyat» rukni ostidagi topshiriqlardan foydalaning.

Olgan bilimlaringizni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan test topshiriqlari, vaziyatlar, badiiy va tarixiy adabiyotlardan keltirilgan parchalarni diqqat bilan o‘qib, uni oila a‘zolaringiz bilan birgalikda muhokama qiling.

Fuqarolik jamiyati asoslari fanini o‘zlashtirishda Sizlarga muvoffaqiyatlar tilaymiz.

*Mulliflardan*

## JAMIYATNING TARIXIY SHAKLLARI



### *Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:*

1. Siz jamiyat deganda nimani tushunasiz? O'zingizni jamiyat a'zosi deb hisoblaysizmi?
2. 1-, 4- va 6-rasmlarda tasvirlangan bolalarni jamiyat a'zolari deyish mumkinmi?
3. 3-, 5-, 8- va 9-rasmlarning har birini alohida-alohida jamoalar deyish mumkinmi?
4. 1-, 2- va 7-rasmlarda tasvirlangan insonlarning jamiyat bilan qanday bog'liq jihatlari mavjud?
5. Rasmlardagi barcha shaxslarni birlashtirib, "jamiyat" degan so'zga ta'rif berib ko'ring.
6. "Jamiyat" va "aholi" atamalarining umumiy va farqli jihatlarni sanab bering.

7. *Jamiyat qachon paydo bo'lgan deb o'ylaysiz? Jamiyat tarixi bilan qiziqqanmisiz?*

Jamiyatshunos olimlar tomonidan jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyojlarni qondirish yotadi, degan nazariyani ilgari surilgan. Tabiiy ehtiyoj kishilarni birlashishga, jamoaga uyushuviga, yashash uchun o'zaro hamkorlikka olib kelganligini Siz Tarix darslaridan bilib olgansiz. Kishilar o'rtasidagi bu hamkorlik jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro birlaridan tillari, urf-odatlarini, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Bu tabiiy e'tirof, umuman, jamiyat tushunchasiga aniq tarixiy yondashuvni, ijtimoiy hayot – iqtisodiy, ma'naviy jabhalarining o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy muomalaning shaxs (indivud), oila, millat, davlat kabi sub'ektlarini aniq belgilashni taqazo etadi.

Jamiyat g'oyat murakkab va ko'pqirrali hodisa bo'lib, muttasil ravishda o'zgarish va rivojlanish xususiyatiga egadir.

Jamiyat - muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilardan iborat jamoa.

Turli tarixiy davrlarda mifologik (asotir), diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to'g'risida muayyan bilim, tasavvurlar hosil qilishga imkon bergan. Jamiyat to'g'risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning rivojlanishiga Markaziy Osiyo mutafakkirlari, qomusiy bilim egalari: Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug' mutafakkirlar salmoqli hissa qo'shganlar.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan huquqiy davlatchilik fuqarolik jamiyati-ning siyosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi munosabatlarda huquqbuzarlikka yo'l qo'yib bo'lmaslik va fuqarolik jamiyatining barcha a'zolari uchun teng erkinlikni targ'ib etuvchi huquqiy g'oyalar adolat-ning oliy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Inson jamiyat a'zosi bo'lar ekan, shu ijtimoiy shart-sharoit muhitida yashaydi.

Inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy bog'liqdir: inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig'indisidangina iborat emas. Jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi; bunday munosabatlar kishilarni oila, urug', qabila, millat, davlat va, nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Insoniyat qadim-qadimdan o'z davriga xos turmush va tafakkur tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ya'ni ma'lum darajadagi sivilizatsiyaga ega bo'lgan.

Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy rivojlanish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy taraqqiyot jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari asosan XVII asrda G.Grotsiy, T.Gobbs, D.Lokk, XVIII asrda J.J.Russo, Sh.Monteske, V.Gumboldt, D.Viko kabi mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, aslida antik davr namoyondasi Aristotelning siyosiy-huquqiy qarashlarida ilk bora fuqarolik jamiyatiga oid fikrlar uchraydi. Demak, fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo insoniyat nazarida bo'lib kelgan.



qoidalarini o‘zlashtiradilar, bir-birlari bilan insonlarcha munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.

Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilma-xil bo‘lsa, bu jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligidan, rivojlanganligidan dalolat beradi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy tomonlarini uyg‘unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanib, bunday taraqqiyot fuqarolik jamiyatiga olib keladi. Jamiyat tushunchasi bilan “fuqarolik jamiyati” tushunchasi o‘rtasida nafaqat chambarchas bog‘liqlik, balki juda jiddiy farqlar ham mavjuddir. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar majmui hisoblangan jamiyat o‘z taraqqiyotining takomilga yetgan bosqichida, ma’lum sharoitlarda fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Shu nuqtai-nazardan, garchi mohiyatida mavhumlik namoyon bo‘lsa-da, “fuqarolik” tushun-

Fuqarolik jamiyati – bu qonuniyatga asoslangan bosqich, shaxslar o‘z-o‘zini namoyon etishini oliy shaklidir.

### **Ijodiy faoliyat**

Pifagorning shogirdi Ksenofontdan bir kishi “Nima qilsam o‘g‘limni yaxshi tarbiyalagan bo‘laman?” - deb so‘raganida u: “Bo‘langni qonun ustuvor bo‘lgan mamlakatda dunyoga keltir”, - degan ekan.

- 1. Nima uchun Ksenofont bunday maslahat berdi?*
- 2. Qonun ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?*

Jahonda fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi mustahkam qoidalarga asoslangan totalitar tizimni barbod qilgan hamda shaxsning jamiyatdagi ahamiyatini yuksaltirgan industrial, yangi sanoat ishlab chiqarish munosabatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

chasi negizida aniq mazmun mavjud.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asr davom etgan bo'lib, uning ayrim elementlari antik davrda G'arbiy Yevropaning ba'zi bir hududlarida mavjud bo'lgan. Bu mintaqada hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji tovar-pul munosabatlarini vujudga keltirgan holda xususiy huquqqa oid bir qator institutlar (xususan Rim xususiy huquqi) shaklida mustahkamlangan. Ammo ular fuqarolik jamiyatining eng sodda ko'rinishdagi o'choqlari bo'lib, ba'zi mintaqalarda sinfiy jamiyatlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud bo'lgan.

Fuqarolik jamiyati insoniyatning taraqqiyot mahsuli sifatida huquqiy davlatning shakllanishining boshlanishi davrida paydo bo'ladi.

Barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Jamiyat demokratik taraqqiyotning muayyan bosqichidagina fuqarolik jamiyatiga aylanadi va davlatning iqtisodiy, siyosiy rivoji darajasiga, xalqning moddiy-ma'naviy farovonligi, madaniyati hamda ongi o'sishiga qarab shakllanadi.

## Savol va topshiriqlar:

1. Ilk poleolit davrida odamlar to‘da-to‘da bo‘lib g‘orlarda yashaganlar, tabiatdagi tayyor narsalarni - daraxtlarning mevalarini, o‘simlik ildizlarini kavlab yeb, tirikchilik qilganlar. Ular birgalashib yirik hayvonlarni ovlab yeganlar, shuningdek, mayda jonivorlarni, ularning tuxumlarini ham iste‘mol qilganlar.

So‘nggi poleolit oxirida yuz bergan tub o‘zgarish ibtidoiy to‘da o‘rnida ibtidoiy jamoa-urug‘chilik tuzumining vujudga kelishidan iborat bo‘ldi. Qon-qarindoshlik ona urug‘i doirasida rasmiylashdi, u tarixda *matriarxat* deb nom oldi. Bir urug‘dan tarqalgan odamlar jamoasi katta bir g‘orda yoki bir necha kulbadan iborat joyda birgalikda yashab, birgalikda mehnat qilishib, kichik bir mulkka egalik qilishgan.

E‘tibor bering. Bu odamlarni nima birlashtirgan?

- Bunday birgalikda yashashni fuqarolik jamiyati, deb atash mumkinmi? fikringizni asoslang.

2. Nima uchun fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi?

3. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldiring: “ Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik ..., ... bo‘lsa, bu jamiyatning ... xarakterga ega ekanligidan, ...dan dalolat beradi.”

4. “Jamiyat” va “fuqarolik jamiyati” o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashlik tomonlarini sanab bering.

## TEST

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari asosan nechanchi asrdan boshlab o'rganila boshlangan?

- A) XVII asrdan
- B) XVIII asrdan
- C) XI asrdan
- D) XIII asrdan

2. Fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari Yangi davrda qaysi mutafakkirlar tomonidan o'rganilgan?

- A) T.Gobbs, J.Lokk, J.Russo
- B) A.Sim-Simon, Monteske, V.Bax
- C) Sh.Fure, V.Gyugo, M.Edin
- D) L.Sharma, H.Hukxem, M.Grotsiy

3. Qonuniyatga asoslangan bosqich bo'lib, shaxslar o'z-o'zini namoyon etishining oliy shakli sifatida qaraladigan jamiyatga ...

- A) oliy jamiyat deyiladi
- B) fuqarolik jamiyati deyiladi
- C) avtoritar jamiyat deyiladi
- D) huquqiy-demokratik jamiyat deyiladi

4. Fuqarolik jamiyatining siyosiy poydevorini aniqlang.

A) shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan huquqiy davlatchilik

- B) moddiy va ma'naviy madaniyat
- C) jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligi
- D) ijtimoiy hayot qoidalarining o'zlashtirishi

5. Fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zarur sharti ...

- A) barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining paydo bo'lishi
- B) shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlanishi
- C) jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligi
- D) ijtimoiy hayot qoidalarining o'zlashtirishi

6. Kimning siyosiy qarashlarida ilk bor fuqarolik jamiyatiga oid fikrlar uchraydi?

- A) Pifagor
- B) Aristotel
- C) Demokrit
- D) Platon

7. Pifagorning shogirdi .... bo'lgan.

- A) Ksenofon
- B) Aristotel
- C) Demokrit
- D) Platon

8. "Bolalarni qonun ustuvor bo'lgan mamlakatda dunyoga keltirish zarur"ligi g'oyasini ilgari surgan allomani aniqlang.

- A) Ksenofon
- B) Aristotel
- C) Demokrit
- D) Platon

## FUQAROLIK JAMIYATI G‘OYASINI SHAKLLANTIRGAN TARIXIY SHART-SHAROITLAR

### *Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:*

*Rim respublikasi.*

*Xalq majlisi patrisiylardan ikki kishini bir yil muddatga rahbar qilib saylagan. Ular konsullar deb atalgan.*

*Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo‘lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmas edi.*

*Mil. avv. III asr boshlarigakelib Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat’i nazar qonun oldida teng deb hisoblangan qonunlar qabul qilindi.*

*Qadimgi Afina.*

*Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o‘z fikr-mulohazalarini bayon eta olganlar. Ular yuzaga kelgan muammolarni, yangi qonunlarni muhokama qilish uchun har oyda to‘rt maratta yig‘ilganlar. Barcha qarorlar ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan.*

*Markaziy Osiyo.*

*“Avesto” amaliy qonunlarining maqsadi “barcha jihatlardan uyg‘un bo‘lgan uyushgan, gullab-yashnagan jamiyatni yaratish” bo‘lgan.*

*1. Matnlarni o‘qing. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.*

*- Fuqarolar o‘rtasida tenglik va adolat tushunchalarining rivojlanishi haqida fikr bildiring.*

*- Fuqarolar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni shakllanishida qonunlarning ahamiyati qanday?*

*2. Drakont va Hammurapi qonunlari o‘rtasida qanday farq bor?*

3. *Fuqarolik jamiyati qanday jamiyat? Uning ma'naviy qiyofasi, odamlari qanday bo'ladi? Fuqarolik jamiyatining namunaviy a'zosi bo'lish uchun bizda qanday fazilatlar mujassam bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz? fikringizni asoslang.*

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, asta-sekin jismoniy va intellektual (aqliy) jihatdan takomillashib bordi. Odamzotning jamiyat bo'lib yashashi uchun ma'naviy madaniyat kerak edi. Ana shu ehtiyojlar sababli hozirgi odam (Homo sapiens) tiplaridagi instinktlar o'rnini axloq normalari egallab bordi.

Natijada dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelgan odamlar jamoasida "ruxsat" va "ta'qiq" tizimi shakllandi.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi tufayli ruxsat va ta'qiqlar o'rniga "savob" va "gunoh" haqidagi tushunchalar tarkib topdi.

Insonlar jamoasining keyingi uch ming yillik ma'naviy madaniyati ana shu qarashlar doirasida takomillashib bordi.

Insoniyat taraqqiyotida davlatning paydo bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Davlat rivoji ham katta tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Bora-bora davlatning demokratik shakllari yuzaga kelgach, jamiyat ma'naviyati qonun ustivorligi ruhida shakllanib bordi. Davlat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar

"Jamiyat" va "fuqarolik jamiyati" tushunchalari aynan bir xil emas.

*A x l o q l i  
bo'lmoq bu – qonun  
ustivor davlatning  
fuqarosi bo'lmoqdir.  
Gegel*

Qadimiy Yunon faylasufi Aristotel jamiyatni o'rganish bilan bog'liq fanlarni «Metafizika» deb nomlagan.

qadimgi Babil, Misr, Hindiston, Markaziy Osiyoda vujudga kela boshladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da, qadimgi hind eposlari bo‘lmish “Mahabhorat”, “Ramayana”, “Kalila va Dimna”da

### **Ijodiy faoliyat.**

Buzrugmehrardan so‘rabdilar:

Siz bir vaqtlar Sosoniylar davlatining oqil vaziri bo‘lgansiz. Hozir ham sizdan haqiqatgo‘y va dono odamni topib bo‘lmaydi. Aytingchi, sosoniylar davlati nima sababdan inqirozga uchradi?

- buning sabablari quyidagilar: Birinchidan, podshohlar o‘z atrofidan dono va fozil kishilarni uzoqlashtirib, davlat ishlarini besavod va salohiyatsiz odamlarning qo‘liga topshirib qo‘ydilar. Ikkinchidan, podshohlar o‘z farovonliklarini xalq farovonligidan ustun qo‘ydilar. Xalqni o‘ylamadilar, adolatsizliklarni avj oldirdilar. Buning natijasida xalq podshohni qo‘llamadi, bosh-boshdoq bo‘lgan davlat esa dushman tomonidan osonlik bilan bosib olindi.

*1. Davlat va jamiyatning mustahkamligi uchun qanday omillar zarur deb hisoblaysiz?*

*2. Xalq farovonligi deganda nimalar tushuniladi?*

*3. Jamiyat farovonligini ta'minlash faqat hukmdorlarning vazifasimi?*

*4. Ilm-fanning rivojlanishi jamiyat farovonligiga ta'sir ko'rsatadimi?*

*5. Qanday jamiyatda ilm-fan rivojlanadi?*



jamiyat, inson, ijtimoiy muammolar o‘z ifodasini topgan.

Xususan, “Aveto“da qayd etilgan “Ezgu so‘z, ezgu fikr, ezgu amal“ qoidasi jamiyatning asosiy tamoyiliga aylangan.

Jamiyat, unda odamlarning o‘rni, ularning hamkor bo‘lib ya-shashi to‘g‘risidagi g‘oyalar Markaziy Osiyoda o‘rta asrlarda ham shakllangan. Abu Nasr Forobiy asarlarida jamiyatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma‘rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o‘zaro ko‘maklashuviga,

Fuqarolik jamiyati insoniyat jamiyatining oliy shakli, oliy ko‘rinishidir. Bu jarayon hozir ham, bundan keyin ham shakllanish va takomillashish bosqichida davom etadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat rivojlanishining ilk bosqichlaridanoq “ideal davlat”, “ideal jamiyat”, “ideal shoh” tushunchalari negizida shakllana boshlagan.

bir-biriga yordam berishiga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo‘lgani sababli ham o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Abu Ali Ibn Sino “Ishorat va tanbihot” asarida “inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmay-

J a m i y a t -  
ning paydo bo'lishi  
kishilarning birdam-  
likka bo'lgan tabiiy  
ehtiyojidan kelib  
chiqqan.

Ibn Sino

di, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo'libgina, o'z ehtiyojlarini qondirishi mumkin", deb hisoblaydi. U insonlarning jamiyatdagi o'rniga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug'ullanuvchilar;

b) xom-ashyo va zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar;

c) davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta'minlaydigan harbiylar.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib sivilizatsiyalarning paydo bo'lishida tabiiy-geografik muhitning tutgan o'rnini asoslashga uringan.

Jamiyatni idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishidan iborat.

Abu Rayhon Beruniy

“Jamiyat” – keng tushuncha bo'lib, u turli odamlar guruhining oddiy majmui yoki jamoasi emas. Odamlarning hayoti, eng avvalo, ishlab chiqarish, turmush farovonligini ta'minlovchi iste'mol buyumlari yaratish va ularni o'zaro ayirboshlash bilan bog'liq muayyan mushtarak faoliyat zamin-

ida kechadi.

“Jamiyat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalari aynan bir xil emasligini tushunib oldingiz. Insoniyat, davlat, jamiyat tarixining muayyan rivojlangan davridagina fuqarolik jamiyati shakllanib, o‘zini-o‘zi rivojlantiradi.

Fuqarolik jamiyati – insonning mustaqil shaxs sifatida o‘z-o‘zidan ichki rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi. U yuksak madaniyatga asoslangan taraqqiyotning oliy shakli, demokratik jamiyat asoslarini faol barpo etishga imkon beruvchi, Konstitutsiya va qonun ustunligi, umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlari to‘la ta‘minlangan o‘ziga xos ochiq ijtimoiy jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari asosan XVII asrda G.Grotsiy, T.Gobbs, D.Lokk, XVIII asrda J.J.Russo, Sh.Monteske, V.Gumboldt, D.Viko kabi mutafakkirlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, aslida antik davr namoyondasi Aristotelning siyosiy-huquqiy qarashlarida ilk bora fuqarolik jamiyatiga oid fikrlar mavjud.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar ko‘p bo‘lib, bularga:

– erkin iqtisodiy faoliyatni kafolatlovchi bozor xo‘jalik tizimi, tadbirkorlikning rivo-

Fuqarolik jamiyatini insonlarning o‘zaro totuv va hamjihatlikda yashashlari ularning o‘z ongi va erki bilan yuzaga keladi.

ylanishi, turli mulk shakllarining mavjudligi hamda ularning jamiyat uchun foyda keltirishi;

– insonning erkin yashashi uchun zaruriy muhit, ya'ni ijtimoiy himoyaning kafolatlanganligi, sog'lom turmush tarzi;

– inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi;

– o'zini-o'zi boshqarish institutlarining mavjudligi, tashabbus erkinligi va boshqa shu kabilar.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo insoniyat nazaridan chetda qolmagan. Bunday jamiyatning mavjud bo'lishi uchun, avvalo, komil inson birlamchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Yangi davrda Yevropa va keyinchalik, Amerika singari yirik mintaqalar miqyosida fuqarolik jamiyati taraqqiyoti uch bosqichda amalga oshgan.

Dastlabki bosqichda (taxminan XVI-XVII asrlarda), fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari vujudga kelgan.

Taxminan XVII asrning oxiridan XIX asrning yakuniga qadar bo'lgan ikkinchi bosqichda eng rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati huquqiy jihatdan tenglik va xususiy tadbirkorlikka asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishida shakllandi.

XX asrda fuqarolik jamiyatining uchinchi bosqichi – ya'ni uning ijtimoiylashuv davri boshlandi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. “Fuqarolik jamiyati - huquqiy jamiyat” iborasini sharhlang. fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Odil jamiyat haqidagi qanday qarashlarni bilasiz?
3. Xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, maqollar, dostonlar)dan odil podshoh, xalq farovonligi, farovon jamiyat haqidagi ma’lumotlarni toping va munosabat bildiring. Mavzu bilan bog‘lashga harakat qiling.
4. Tenglik va adolat tushunchalarini o‘ziga xoslik va o‘xshashlik tomonlarini aniqlang.
5. Fuqarolik jamiyati nima sababdan uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi?

## TEST

1. Mil. avv. nechanchi asr boshlariga kelib Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat'i nazar qonun oldida teng deb hisoblangan qonunlar qabul qilishgan?

- A) Mil. avv. III asr
- B) Mil. avv. II asr
- C) Mil. avv. I asr
- D) Mil. avv. IV asr

2. Jamiyatni o'rganish bilan bog'liq fanlarni "Metafizika" deb nomlagan qadimiy Yunon faylasufini aniqlang?

- A) Demokrit
- B) Platon
- C) Aristotel
- D) Gerodot

3. "Ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal" qoidasi qaysi din yoki yo'nalishga taalluqli?

- A) Zardushtiylik
- B) Konfutsiylik
- C) Buddaviylik
- D) Sionistik

4. "Ishorat va tanbihot" asari muallifi kim?

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Abu Ali ibn Sino
- D) Al-Xorazmiy

5. Buyuk allomalardan kim kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini ko‘rsatgan?

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Abu Ali ibn Sino
- D) Al-Xorazmiy

6. Axloqli bo‘lishqanday davlatning fuqarosi bo‘lishdir?

- A) qonun ustuvor davlatning
- B) etatik davlatning
- C) oraliq davlatning
- D) madaniyatli davlatning

7. Abu Ali Ibn Sino “Ishorat va tanbihot” asarida “inson o‘z shaxsiy talablari jihatdan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina, o‘z ehtiyojlarini qondirishi mumkin”, deb hisoblaydi. U insonning jamiyatdagi o‘rniga ko‘ra necha guruhga bo‘ladi?

- A) 3 guruhga
- B) 4 guruhga
- C) 5 guruhga
- D) 7 guruhga

8. Abu Ali ibn Sino “Ishorat va tanbihot” asarida “inson o‘z shaxsiy talablari jihatdan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina, o‘z ehtiyojlarini qondirishi mumkin”, deb hisoblaydi. U insonning jamiyatdagi o‘rniga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘ladi. Ushbu guruh vakillarini yozing.

J: \_\_\_\_\_

## QADIMGI G'ARB VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ADOLATLI JAMIYAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARI

### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:

1. Eramizdan avvalgi 74-71-yillarda Rimda Spartak boshchiligida qullar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. Qo'zg'olonchilarning asosiy maqsadi nima bo'lgan?

2. Aleksandr Makedonskiy mil.avv. 329-327-yillarda O'rta Osiyoga yurish qildi. Unga qarshi kurashgan insonlarni nima birlashtirib turgan?

3. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan kastachilik an'anasiga ko'ra odamlar to'rt tabaqaga bo'lingan edi. Bir tabaqadan boshqa tabaqaga o'tish mumkin bo'lmagan. Lekin, Sidxardha Gautama biror-bir tabaqa mavjud emasligini targ'ib qilgan. Bu bilan u qanday jamiyat qurishni orzu qilgan?

Inson paydo bo'lganidan boshlab iyaxshi jamiyatda yashashga intilganlar va orzu qilganlar.

Ularni qadimgi davrlardan boshlab, ehtiyojlar va manfaatlar birlashtirganligini avvalgi mavzulardan bilib olgan edingiz.

### Ijodiy faoliyat:

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob berining.

1. Mehnat qurollarining takomillashuvi qanday o'zgarishlarga olib keldi?
2. Davlatning tashkil topishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
3. Dastlabki davlatlar qayerlarda tashkil topdi?



Jamiyat rivojining ehtiyoji mahsuli sifatida davlat paydo bo‘ldi. Jamiyat boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga bo‘lindi. Jamiyatni boshqarish ma’lum qonun-qoidalariga asoslangan.

Qadimgi Yunonistonda davlat, jamiyat to‘g‘risida qarashlar shakllanib bordi.

G‘arb va Sharq olimlari va faylasuflari o‘z davrida jamiyat farovonligi uchun qonun ustuvorligiga, qonuniylikka doir fikrlarni bildirib kelganlar.

Platon orzu qilgan “ideal davlat”da donolik, jasorat, me’yor va adolat kabi to‘rt tamoyil ustuvor hisoblangan. Davlatni boshqaruvchi shaxslar, avvalambor, ana shu sifatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Platon ta’limotiga ko‘ra, oqillik va mardlik ijobiy, faol fazilatlar. U odillik shaxsiy fazilat bo‘lmasdan, balki davlat fazilatidir, deydi. Ideal davlat majburiy idoradir. Faylasuf o‘zining so‘nggi asari “Qonunlar”da davlat to‘g‘risida fikr yuritib, axloqiy tarbiyaga katta e’tibor qaratadi va qonunchilikni axloqiy jihatdan mustahkamlash to‘g‘risida gapiradi. U mazkur asarida axloqiy sifatlarni tug‘ma deb ta’kidlaydi.

Yana bir yunon faylasufi Aristotel, eng yaxshi hayot tarzi haqidagi ta’limot bevosita davlat tuzilishi va siyosatining maqbul shakliga bog‘liq, deya ta’kidlaydi. Unga

Platon o‘zining “ideal davlat” nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga bo‘ladi.

### Ijodiy faoliyat

Ezgulik insonlarga azaldan berilgan, ezgulik tug‘madir. Mardlik (qahramonlik yoki ruhning kuchi) soqchi-harbiylar uchun tug‘ma bo‘lib, davlatni himoya qilishga qaratilgan.

Mazkur fikrlarga munosabatingizni bildiring.

Suqrot: *“Afina qonunlarini tanqid qilsam-da, ularni yetuk emas deb bilsam-da, ammo bu qonunlarni afinaliklar qabul qilgan ekan, ularga bo‘ysunmaslikka haqqim yo‘q. Yoshim bir joyga borganida ularni buzib, avlodlarning tavqila‘natiga qolmay”*.

ko‘ra, ezgulik aniq-maqсад va unga doimiy intilish bilan birga amalga oshiriladi. Ezgulik tug‘ma sifat bo‘lmasdan, unga ta‘lim-tarbiya va mehnat orqali erishiladi. Aristotel adolatsizlik deganda qonunni buzuvchilar, va barchaga teng munosabatda bo‘lmaydigan kishilarni tushunadi.

Qonunga yarasha ish qiladigan, barchaga bir ko‘zda qaraydigan kishilarni adolatli deb hisoblaydi. Uning fikricha, barcha kishilar tenglikka amal qilishi lozim. Aristotelning buyuk xizmati shundaki, u ilk bor erkinlikka intilish - insonga xos tug‘ma xususiyat ekani va bu hol uning o‘zligini anglashi, yuksak maqsadlar va ezgu amallar sari xatti-harakatlari bilan uzviy bog‘liqligini ta‘kidlaydi.

Qadimgi Xitoy allomasi Konfutsiy ham o‘zining asarlarida (“Suhbatlar va mulohazalar”) qonunga itoat qilish va qonunning ustuvorligi to‘g‘risida to‘xtalib: *“Biz qonunlarni uyimizning devorlari deb bilishimiz kerak, ya‘ni har kuni har lahzada unga e‘tibor berib, u bilan yashashimiz kerak”*, - deb ta‘kidlagan.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot esa qonunlarni polis (davlat)ning poydevori, inson va jamiyat hayotining, yashash tarzining kafolati sifatida ko‘rgan.

Suqrot Afina demokratiyasining “buyuk yutug‘i” deya ta‘riflangan – rah-

barlarni qur'a tashlash yo'li bilan saylash tamoyilini keskin qoraladi. Uning bu qarashlari davlatga emas, balki tartibotga qarshi bo'lgan. Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'yda, maydonlarda, hiyobonlarda o'z shogirdlari va izdoshlari bilan suhbatlarda bayon qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Suqrot ta'limoticha, axloq masalalari jamiyatda ustuvor bo'lishi lozim. Jamiyat ravnaqi tinch va osoyishtalikka, farovon hayot esa axloq-odob yuksak bo'lishiga bog'liq. Suqrot inson bilimining cheksizligi, ha-qiqatning nisbiyligi, olamning bepoyonligini anglab yetgan.

Konfutsiy jamiyatning to'g'ri va tartibli bo'lishida har bir kishi o'z o'rnida mehnat qilishi va uning rohatini ko'rishi lozim, degan fikrni ilgari surgan.

Buning uchun ota – ota o'rnida, farzand – farzand o'rnida bo'lishi lozim. Podsho-lar xalq uchun qayg'urishlari lozim.

*Jamiyat qonunlari axloqiylik tamoyillariga mos bo'lishi lozim.*  
Konfutsiy

Mil.avv. VIII-VII asrlarda quyi Amudaryo hududlarida vujudga kelgan yakkaxudolikni targ'ib etadigan din Zardusht tomonidan isloh qilinib, takomillashtirildi. Bu davrda turli xudolarga sajda qiluvchi qabilalar o'rtasida kelib chiqqan ziddiyatlar parchalanib ketayotgan jamiyatning ichki qarama-qarshiligini yanada kuchaytirgan.

Boshqaruvda jamiyat an'analariga e'tibor berilmasa, parokandalik kelib chiqadi, bilimsiz, ma'rifatsiz xalq bilan adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi.

Konfutsiy

Agar don, mol-mulk, qurol-aslaha xalqqa yetsa va xalq to'q bo'lsa, jamiyatda adolatsizlik kelib chiqmaydi, agar shamol qayoqqa essa maysa shu tomonga egiladi, agar yaqinlarning sendan ko'ngli to'lsa, uzoqdagilar senga intiladi, deydi.

Davlat inqirozining oldini olish uchun qabilalar o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berib, umumiy manfaatlar mushtarakligini targ'ib qiluvchi muayyan maqsadga qaratilgan izchil g'oyalar yaratish zarurati paydo bo'lgan. Bunday ta'limot, birinchidan, jamiyatning barqarorligini saqlab qolish uchun xizmat qilishi, ikkinchidan, urug' va qabila dinlaridan ustun turuvchi hamda barcha urug' va qabilalar manfaatlariga mos keladigan e'tiqod shaklini yaratishi, uchinchidan, har qanday qonli urush va xunrezliklarga qarshi xalqlarni osoyishtalikka chaqirishi lozim edi.

Zardushtga ezgu fikr va ezgu so'z tayyor holda dunyoviy qudratli aql timsoli – Axuramazdadan yuboriladi. Zardushtiylik ta'limoti o'zidan keyingi yanada rivo-

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyo – yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, yolg'onchilik va rostgo'ylik, vahshiylik va ezgulik, johillik va shafqatlilik, issiqlik va sovuqlik kabi qarshi kuchlar o'rtasida kechadigan ayovsiz kurash maydoni sifatida tasavvur qilinadi.

jlangan milliy-mintaqaviy, jahon dinlari bo‘lgan yahudiylik, buddaviylik, xristianlik va islom e’tiqodining shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Platonning ideal davlatga oid qarashlarini izohlang.
2. Qadimgi Yunonistonda jamiyat hayotida qonunlarning o‘rni va ustivorligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Suqrotning farovon hayot haqidagi tasavvurlarini qanday tushunasiz?
4. Konfutsiyning “Biz qonunlarni uyimizning devorlari deb bilishimiz ke-rak, ya’ni har kuni har lahzada unga e’tibor berib, u bilan yashashimiz kerak” degan fikrlarini bugungi kundagi ahamiyatini asoslang.
5. Zardushtiylikdagi farovon jamiyat qurishdagi asosiy tamoyil nimalardan iborat?

### Topshiriq

Qadimgi G‘arb va Sharq allomalarida adolatli jamiyatga xos bo‘lgan xususiyatlarni alohida jadvalda ko‘rsating.

Sharq allomalari qarashlari	Qadimgi G‘arb allomalari qarashlari	O‘xshashlik jihatlari

## TEST

1. G'arb va Sharq olimlari va faylasuflari o'z davrida jamiyat farovonligi uchun qonun ustuvorligiga, qonuniylikka doir fikrlarni bildirib kelganlar. Xususan, qaysi faylasuf o'zining "ideal davlat" nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga bo'lgan?

- A) Platon
- B) Aristotel
- C) Demokrit
- D) Gegel

2. Qaysi faylasuf adolatsizlik deganda qonunni buzuvchilar, barchaga teng munosabatda bo'lmaydigan kishilarni tushunadi?

- A) Platon
- B) Aristotel
- C) Demokrit
- D) Gegel

3. "Biz qonunlarni uyimizning devorlari deb bilishimiz kerak, ya'ni har kuni har lahzada unga e'tibor berib u bilan yashashimiz kerak", deb ta'kidlagan faylasufni toping?

- A) Konfutsiy
- B) Platon
- C) Demokrit
- D) Aristotel

4. "...Odillik shaxsiy fazilat bo'lmasdan, balki davlat fazilatidir. Ideal davlat majburiy idoradir". Ushbu falsafiy qarashlar kimga tegishli?

- A) Platon
- B) Demokrit
- C) Aristotel
- D) Konfutsiy

5. Tushirib qoldirilgan soʻzni toping? Suqrot: “... qonunlarini tanqid qilsam-da, ularni yetuk emas deb bilsam-da, ammo bu qonunlarni afinaliklar qabul qilgan ekan, ularga boʻysunmaslikka haqqim yoʻq...”

- A) Afina
- B) Rim
- C) Misr
- D) Mesopatamiya

6. Zardushtiylik dinidagi oliy xudoni toping.

- A) Axuramazda
- B) Anaxita
- C) Mitra
- D) Axriman

7. Jamiyatning toʻgʻri va tartibli boʻlishida har bir kishi oʻz oʻrnida mehnat qilishi va uning rohatini koʻrishi lozim degan fikrni ilgari surgan faylasufni toping.

- A) Konfutsiy
- B) Platon
- C) Demokrit
- D) Aristotel

8. “Suhbatlar va mulohazalar” asari muallifini toping.

- A) Platon
- B) Demokrit
- C) Aristotel
- D) Konfutsiy

## AMUR TEMUR - BUYUK DAVLAT VA ADOLATLI JAMIYAT ASOSCHISI

### *Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:*

1. *“Davlatning 9 ulushini kengashu mashvarat bilan, bir ulushini esa qilich bilan boshqardim”, degan iborasini izohlang.*

2. *Nima sababdan Amir Temur davrida fuqarolar farovonligi yuqori darajada bo‘lgan?*

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardan-oq mamlakatda ro‘y bergan og‘ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirgan. Avvalo, u soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig‘ishda aminlar, kalontarlar(mahalliy hokimlar) va soliq yig‘uvchilarni xalqqa nisbatan insof va adolatli bo‘lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi, chunki saltanatning barqarorligi ko‘p jihatdan ra‘iyat(xalq)



*“Men har kimgaki va‘da bersam, unga vafo qildim, har bir va‘daga xilof ish qilmadim. Men doimo va‘dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo‘lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni ang-ladim”*




ning hol-ahvoli, uning davlat va davlat boshlig'iga bo'lgan sadoqatiga bog'liq. Fuqarolarni himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan, qonun barchaga barobar bo'lgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Ularni asirlik va talon-tarojlardan saqlagan.

Sohibqiron Amur Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan.

O'zbekiston xalqining milliy mafkurasi bunyodkor g'oyalar tizimidan iborat. Bu g'oyalar sog'lom va barkamol avlod-

Adolat va  
ozodlik - dastingiz,  
rahbaringiz bo'lsin.  
Amir Temur



*“Mahalliy xalq (Temur davlati fuqarolari) mehnatsevar, mohir chavandoz, kamon otuvchi mergan, sa-bot-matonatli xalq. U boriga qanoat qilib, nonsiz, sut va go'sht bilan ham kun kechiraveradigan, go'shtli va go'shtsiz ovqat bilan tirikchilik qilishga o'rgangan xalq. Issiq va sovuqda, ochlik va tashnalikka jahondagi boshqa ellardan sabotliroq va chidamliroq xalq”.*

Rui Gonsales Klavixo. “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillarda)”.

ni voyaga yetkazish, jamiyatda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yangicha e'tiqod va dunyoqarash egalarini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Vafoli kishi olijanob bo'lib, kishilarni ezgulikka chorlaydi, insonparvarlik yo'liga da'vat etadi, buning natijasida baxt-u saodatga erishadi. Bunday inson har qanday

### Ijodiy faoliyat

"Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan bu che-tiga biror bolakay bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir dona-siga ham zarar yetmaydigan tartib intizom o'rnatdim".

Amir Temurning ushbu so'zlarini qonun ustuvorligi, xalq farovonligi tamoyillari bilan bog'lab tushuntirib bering. Javobin-gizni misollar bilan asoslang.

vaziyatda ham bir-biriga sodiq qoladi, bir-biri uchun jon fido etishga ham tayyor bo'ladi.

Temur tuzuklari"dagi "Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hush-yor, mard va shijoatli bir kishi mingta tad-



*"Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipoh-u ra'iyatning kayfiyatini, turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarini yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qadamli kishilardan vo-qeanavislar belgiladim".*

birsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan soʻzlar bugungi kunda ham ahamiyatini yoʻqotmagan.

“Temur tuzuklari”da ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga maʼnaviyat masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Ushbu asar Sharq va Gʻarbda mashhur boʻlgan, koʻp marta chop etilgan. Unda siyosatdarning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, xalq, qoʻshin, ulamolar, arkoni davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy



*“Amir Temur bobomizning bunday chuqur maʼnoli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud boʻlgan “Bilagi zoʻr birni, bilimi zoʻr mingni yiqar” degan maqolga hamohang boʻlib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak maʼnaviyat asosida yashashga daʼvat etishi bilan eʼtiborlidir”.*

mezon boʻladigan maʼnaviyat tamoyillari oʻsha zamon nuqtai-nazaridan bayon qilingan.

Amir Temur va temuriylar davri maʼnaviy-madaniy tahlilida Ulugʻbek va u rahbarlik qilgan olimlar merosi katta oʻrin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning maʼnaviyati, xulqi, axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish sanʼati bayon qilingan.

Amir Temur davlatida siyosatidagi

## Ijodiy faoliyat

*1393-yilda Shimoliy Eron, Iroq, Kavkazortidek ulkan mamlakat (poytaxti Sultoniya)ga Amir Temur tomonidan hukmdor etib tayinlangan shahzoda Mironshoh Mirzo qismati haqida. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, keyingi vaqtlarda Mironshoh aysh-u ishratga berilib ketib, davlat ishlariga qaramay qo'yadi. U shar'iy va nosha'riy xotinlar olishni ko'paytiradi. Uzluk-siz davom etgan bazmlar va har xil ko'ngilochar o'yinlar xazinaga sezilarli ravishda zarba beradi. Bundan tashqari, u Sultoniya shahrida eng chiroyli va hashamatli binolardan birini buzdiradi. Shuningdek, Tabriz shahridagi mashhur tarixchi Rashiddinning maqbarasini buzdirib, marhumning suyaklarini yig'dirib, shahardagi yahudiylar qabristoniga olib borib ko'mishni buyuradi... Mironshoh o'z haramidagi xotinlariga ham har xil tuhmat va bo'htonlar qilib jabr-zulmni haddan oshiradi.*

*Bu voqealar Amir Temurning qulog'iga ham yetib boradi. Amir Temur voqeani o'nglash uchun tadbirlar ko'radi.*

*Amir Temur o'g'li Mironshoh va uni bu yo'lga solgan barcha amaldorlarga o'lim jazosi berib, ularning barcha mol-mulki musodara qilinsin, deb buyuradi. Bunday qat'iy hukmdan dahshatga tushgan uning piri murshidi Sayid Baraka boshliq barcha amir va beklar hamda shahzodalar o'rtaga tushib hukmning ijrosini to'xtatishni iltimos qilishadi. Amir Temur barcha iltimoslarni rad etadi. Jallodlar boshqalar qatori Mironshohni ham jazo taxtasiga yotqizib boshini kesmoqchi bo'ladi. Sayid Baraka Amir Temurga, mazkur hukm amalga oshirilsa, temuriylar avlodida o'g'lini o'ldirish an'ana tusini olish xavfi borligini uqtiradi. O'shandagina Amir Temur Mironshoh va uning boshqa hukmdorlari ustidan chiqargan o'lim hukmini bekor qiladi.*

Turg'un Fayziyev. **Temuriylar shajarasi.**

Parchani o'qib quyidagi savollarga javob bering

Qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengiligi tamoyillari bilan bog'lab tushuntirib bering.

sogʻlom fikrlilik, uning davr muddaosi bilan hamnafas boʻlishiga doir masalaga ham eʼtibor berilgan. Bunda saltanat rahbari tomonidan oʻz zimmasiga yuklangan burch va masʼuliyatni chuqur anglash, xalq tinchligi, omonligini saqlash, davlat rahbarining butun fikr-u zikri jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni taʼminlashga xizmat qilishi zarur, deb hisoblangan.

Davlatni boshqarishda u islom dini va shariatga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng koʻrib, qilgan xizmatiga qarab, ularning hurmatini joyiga qoʻyadi.

Temur davlatida fuqarolarning belgilangan qonun-qoidalarga soʻzsiz boʻysunishi lozimligi masalasiga katta eʼtibor beriladi.

Qonun-qoidalarga itoat etish boshqalar qatori Amir Temur farzandlari uchun ham majburiy boʻlgan. Qonun oldida hech

Amir Temur saltanatni boshqarishda 12 ta qoidaga asoslangan. Eng avvalo, olim-u fuzalo, sayyidlar, shayxlar va fozillarga tayandi, ularni oʻzining eng yaqin maslahatgoʻyi, deb bildi.

Ulugʻ ajdodimiz (Amir Temur) garchi buyuk bunyodkor va jahongir boʻlsada, kuch-qudrat zoʻrlilik va zoʻravonlikda emas, aksincha, adolatda, hajihatlik va hamkorlikda ekanini chuqur anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish oʻta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham toʻgʻri yoʻl, tadbir topa olish qobilyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi.

Islom Karimov

kim alohida imtiyozga ega bo‘lmagan.

Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda qozilar qonunlarning to‘la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm su-rishini qattiq nazorat qilib turganlar, tartibbuzarlarni jazolaganlar.

### Savol va topshiriqlar:

1. Amir Temur davridagi farovon jamiyat qurilishi bilan bugungi kundagi islohotlar orasida qanday o‘xshashliklar bor?

2. “Temur tuzuklari”ning o‘rta asr qonunchiligadagi ahamiyati qanday bo‘lgan?

3. Qonun ustuvorligi, “Kuch adolatda” degan tamoyilni mavzu bilan bog‘lang.

4. Qo‘shimcha o‘qish uchun Marsel Brionnnig "Men kim Sohibqiron - Jahongir Temur" asaridan berilgan parchani o‘qing.

- Parchada keltirilgan Basharuy shahrida fuqarolik jamiyatiga oid qanday belgilar mavjud. Ularni ro‘yxatini tuzing.

- Parchaning bugungi kun bilan aloqadorligi nimada?

5. “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan fikrni bugungi kun bilan bog‘lab tushuntiring.



## “Janubiy Xurosonga yurish”

### *parcha*

Bir necha kun yo‘l yurib, nihoyat Basharo‘y shahriga yetdik. Bu shaharning ta‘rifini avval ko‘p eshitganman. Uni ko‘pdan ko‘rish orzusida edim. O‘sha kuni orzuimdagi shahar bilan yuzma-yuz turardim – shukur! Xayolimda bir fikr charh urardi: “Bu shaharning barcha fuqarolari olim emish – shu gap rostmikin?”

Shahar ostonasiga yetganimda, qarshimdan kelayotgan odamlarga ko‘zim tushdi: barchasi poy-u piyoda kelishmoqda edi. Ma‘lum bo‘ldiki, ularning barchasi o‘sha shahar fuqarolari, to‘g‘rirog‘i, shaharning yuqori doira vakillari bo‘lib, meni qarshilab chiqishgan ekan.

Biroq u kishilar yaqinlashgach, ularning yuqori doiraga aloqalari yo‘qligi ayon bo‘ldi. Ular shu turishda ko‘proq dehqonlarga o‘xshab ketardi. Egnilari-dagi kamzullari qalin qo‘pol matodan, rangi yashil edi. Havo sovuq bo‘lishiga qaramay, kamzul ustidan birgina jun nimcha kiyishgandi, xolos. Hammasining boshida xurosonliklarning yagona bosh kiyimi – dastor. Ular to‘g‘ri kelib mening qarshimga to‘xtashdi va ulardan biri, ko‘rinishidan ulardan eng kattasi she‘rni o‘qidi: ...

U she‘rini tugatgach, undan: “Bu shaharning amiri kim?” – deb so‘radim. Qariya bu shaharda amir yo‘qligini aytdi. Men taajjublandim: “shunday ham bo‘lishi mumkinmi, shaharda amir bo‘lmasa, tartib va xavfsizlik ishlariga kim mas‘ul? Yoki shariat ahkomlariga va dunyoviy qonun-qoidalarga rioya etilishini kim nazorat qiladi?” Qariya dedi: “Ey, ulug‘ hukmdor! Bizning shahrimizda haqiqatan ham amir yo‘q, hech qachon bo‘lmagan ham. Shariat qonunlariga rioya etishga ham, dunyoviy masalalarni yechishga ham o‘zimiz mas‘ulmiz!”

Men sizning yurtigingiz haqida ko‘p ajabtovur suhbatlarni eshitgan edim, biroq, eng ajablanarlisi sizlarning amirsiz yurtda yashayotganingiz, - dedim ularga.

Ey, ulug‘ hukmdor, shunday bo‘lsa ham, yurtimizga marhabo! Amirsiz yashayotgan xalqimizning turmushini bir ko‘r! – deb u meni shaharga taklif etdi. Basharo‘yga qadam bosar ekanman, shahar darvozasining boshqa darvozalardan anchayin enlik ekani e‘tiborimni tortdi. Hatto, Samarqandda ham shahar darvo-

zasi bu qadar enli emas edi. Biz borayotgan yo‘lning ikki chekkasida qandaydir yumush bilan mashg‘ul odamlarni uchratdim: ularning qo‘llarida to‘rva, undan nimani olishar, ikkiga ajratib bir qismini o‘ng va bir qismini chap cho‘ntaklariga solishardi – bu jarayon xuddi taxlid uzluksiz davom etmoqda.

Men bu qishloqning eng keksasi, shahar bo‘ylab menga hamrohlik qilayotgan kishidan, bu odamlar qanday mashhulot bilan band ekanliklarini so‘radim. Qariya javob qildi: “Ey, Amir, odamlarning qo‘lidagi to‘rvada echkinging juni bor. Ular jun momiqni ajratishadi. Jundan gilam va shol, momiqdan esa, mato to‘qiladi”.

Nega sizlar qo‘y junidan foydalanmaysizlar? - deb so‘radim undan.

Chunki bizda qo‘y boqish uchun o‘tloqlar yo‘q, - deb javob qildi u savolimga. – Shuning uchun, echki boqish uchun ham qulay, ham foydali. Chunki echki qo‘ydek nozik emas, quruq xashak, buta bilan ham kifoyalanadi. Undan jun va sut olamiz.

Shundan so‘ng men nihoyat hamrohning ismi-sharifini so‘radim. U o‘zini Hasan bin Is‘hoq deb tanishtirdi. Uning shaharda qanday vazifada ekani bilan qiziqdim. U shu shaharning imomi ekanini, ibodat mahali peshnamoz bo‘lishini, fuqarolar o‘rtasida chiqib turadigan mayda-chuyda kelshimovchiliklarga hakamlilik qilishini so‘zlab berdi.

Shu orada biz mo‘jazzgina to‘quv ustaxonasiga yaqinlashdik. Unda to‘rt nafar erkak mato to‘qish bilan band edi. Hasan bin Is‘hoq menga dedi: “Ey, Amir, Sen yo‘lda ko‘rganing, jundan ajratilayotgan momiqdan biz mana shu joyda mato to‘qiyimiz, matomizning nomi – “Barak”.

Shundan so‘ng u bir to‘p mato olib kelishlarini so‘radi. Uni menga ko‘rsatmoqchi edi. Haqiqatan ham bu mato mayinligi bilan ham, nafisligi bilan ham, o‘sha paytlari Samarqand bozorlarini bosib ketgan Xitoy matolaridan ustun ekaniga amin bo‘ldim. Men mana shunday bir to‘p mato qancha baholanishini so‘radim. U bir to‘p matoning bahosi yarim dinor ekanini aytdi – juda ham arzon ekan.

Ustaxonani tark eta turib, hamyonimdan bir necha dona tilla tanga olib, uni to‘quvchilarga hadya qilmoqchi bo‘ldim. Biroq ular mening himmatimni rad etib, muruvvatimni olishni istashmadi. Aksincha: “Ey Amir, - deyishdi ular ta‘zim bajo keltirib, – biz o‘z mehnatimiz bilan halol tirikchilik qilamiz – ortiq hech narsaga zarurati yo‘q. Sening in‘omingni olmaganimiz, undan katta in‘omoni olib bo‘lganimizdandir. Sen bilan yuzma-yuz ko‘rishishlik, sen kabi



dunyoga mashhur insonning diydoridan bahramand bo‘lish – har kimga nasib etmaydi. Shuning o‘zi Allohning bizga qilgan marhamati, in’omi emasmi?”

Ustaxonadan chiqib, bir necha qadam bosgach, bir do‘konga ro‘baro‘ kel-dik. Ayol kishi nimadir harid qilmoqda edi. Sotuvchi esa, toroziga qo‘l tegizish-dan oldin, bir oyatni o‘qiganini eshitdim: ...

Bu holdan hayratlandim. .. Arabiy so‘zlarni talaffuz etishidan bildimki, u Qur’onni yaxshi biladi. Oddiy bir sotuvchi qanchalar ziyoliy. Savdo tugab, ayolning do‘kondan uzoqlashishini kutib turdik. Keyin borib do‘konchini gapga tutdim: “Ey odam, sen hozirgina o‘qiganing, oyatning mazmunini bilasanmi?” U savolimni tasdiqlagach, yana so‘radim: ... ma’nosini ayt-chi.

U: “buning ma’nosi, o‘lchov va tarozidan urib qoluvchi kimsalarga halo-kat bo‘lgay”, – dedi. Men oyatning boshqa kalimasini o‘qidim va ...mazmunini so‘radim.

Do‘kon sotuvchisi javob qildi: “Bu birinchi oyatda keltirilgan fikrni to‘ldirib keladi. Ya’ni “Ular odamlardan (biror narsani) o‘lchab olgan vaqtlarida to‘la qilib oladigan, ularga o‘lchab yoki tortib bergan vaqtlarida esa kam qilib bera-digan kimsalardir”, biroq ...”

Biroq deb nimani nazarda tutayapsan?

“Bundan keyin Qur’onda yana bir oyat borki, u avvalgi oyatlar mazmuni-ni to‘ldiradi, – dedi va o‘sha oyatni o‘qib mazmuni to‘ldirib berdi.” ... “Kim harid qilishda o‘lchov jomi yoki tarozi pallasini to‘ldirib olgani holda, aksin-cha, sotishda o‘zgalarga kam sotishga urinsa, ya’ni o‘lchov jomi yoki taroziga keraklicha mol qo‘ymasa, o‘lchashda haridor haqiga xiyonat qilgan bo‘ladi”. Qur’onning ana shu uch oyatini qo‘shib o‘qigan kishi, uning ma’nosini to‘liq anglaydi”, – dedi.

Men uning bilimdonligidan hayratlandim. “Ey mehribon odam, agar bo-laligimda menga Qur’onni o‘rgatgan muallim, oyatlar mazmunini sen kabi tu-shuntirib bera olganida edi!” – dedim. Keyin so‘radim: “Nega bu oyatlarni ayni o‘sha damda o‘qiding?” U javob qildi: “Ey amirlar Amiri, o‘sha damda tarozida mol o‘lchashga kirishayotgan edim. Shundan shu oyatlarni o‘qib, Alloh har bir xatti-harakatimni kuzatib turganini, birovning haqqiga xiyonat qilib, tarozidan urib qolish gunohi azm ekanini o‘zimga-o‘zim eslatdim”, – dedi.

Do‘kondan chiqib, bir uyga kelib kirdik. Bu uyning mening shaharga ke-lishim munosabati bilan maxsus hozirlangan ekan. ...

Hamsuhbatimga tashakkur aytdim. Shu kez o‘zimning uzoq yo‘l bosib

kelib, hali liboslarimni almashtirishga ulgurmaganim yodimga tushdi. Shu bois, oqsoqolga uzrimni aytib, o'zim uchun hozirlangan uyga qaytdim. Kiyimlarini almashtirib, namozimni shu yerda ado etdim.

Shundan so'ng yana tashqariga chiqdim. Shahar ahli bilan ko'p muloqot qilgim kelardi. ...

Yana bir do'kon qarshisida to'xtadim. Chunki sotuvchisi bir oyatni o'qiyotgandi. ...

Hayratimni yashira olmay sotuvchidan so'radim: "Shu oyatning ma'nosini aytib ber!" U mahtal qilmadi: "O'rtalaringizdagi oldi-berdi savdo-sotiqdan biron narsani o'lchagan vaqtlaringizda o'lchovni to'la-to'kis qilinglar".

Sirasini aytganda, shaharning barcha savdo do'konlarida xuddi shu manzarani uchratish mumkin edi. Do'kon sotuvchilari tarozida mol o'lchayotganida albatta, biror-bir oyatni o'qir, bu oyat esa savdoning halolligi, uning qoidalariga rioya etish zarurligi haqida bo'lardi.

Hasan ibn Is'hoq keyinchalik menga Basharuyning ibrat olsa arzigulik yana bir qator xususiyatlari haqida ham so'zlab berdi. Aytishicha, Basharo'y degan joy paydo bo'lganidan shu kunga qadar shaharda biror marta ham o'g'rilik hodisasi ro'y bermagan emish. Biror-bir odamning ikkinchisiga do'q urgani yoki biror-bir erkakning xotini bilan ajragani kuzatilmagan. Katta yoshli kishilarning shahodat berishlaricha, muqaddam ham yuqoridagiga o'xshash va meros talashib, bir-biri bilan nizolashish hodisasi Basharo'yda ro'y bermagan. Birov-birovning mulkiga dahl qilgan hollar uchramaydi. Bu shaharda hech qachon kechki qorovullar bo'lmagan. Qozixona, qamoqxona degan tushunchalar bu odamlarga yot. Tomonlar o'rtasida biror-bir muammo chiqsa, odamlar Hasan ibn Is'hoqqa murojaat qilishar, u o'rtada turib, masalaga adolatli yechim topar ekan. ...

Basharo'yda kechgan damlarim man uchun bir umrlik saboq maktabi bo'ldi: bu shaharda haqiqatni angladim, ya'ni ilm va hikmat o'rganish uchun, albatta, insonning mudarris bo'lishi, maktab yoki madrasa muallimi yoki men singari hukmdor bo'lishi shart emas ekan. Aksincha, ishtiyoq bo'lsa, iroda va qat'iyat bo'lsa, dehqon yoki chorvador bo'la turib ham, olimlikni kasb etish mumkin ekan. Axir amal daraja yoki bisoti, odamning komilligini bildirmaydiku! Basharo'yda men mana shu haqiqat bilan yuz ko'rishdim.

... Men Basharo'yga "Dor-ul-ulum va ul omon" (ilm, tinchlik va osoyishtalik dorug'asi) degan unvon berdim.

## TEST

1. Amir Temur saltanatni boshqarishda nechta qoidaga asoslangan?

- A) 12 ta qoidaga asoslangan
- B) 9 ta qoidaga asoslangan
- C) 7 ta qoidaga asoslangan
- D) 3 ta qoidaga asoslangan

2. Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda kimlar qonunlarning to'la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm surishini qattiq nazorat qilib turganlar, tartibbuzarlarni jazolaganlar?

- A) qozi
- B) sadr
- C) qushbegi
- D) devonbegi

3. Amir Temur va temuriylar davrining, umumbashariy ma'naviyatning ilmiy tahlilida qaysi olim rahbarlik qilgan olimlar merosi katta o'rin tutadi?

- A) Qozizoda Rumi
- B) Ali Qushchi
- C) Mirzo Ulug'bek
- D) Z.M.Bobur

4. Amir Temur, eng avvalo, davlatni boshqarishda qanday toifaga mansub kishilarga tayanadi?

- A) olim-u fuzalo
- B) harbiylar
- C) davlat va jamoat arboblari
- D) adabiyot va san'at ahli

5. Amir Temurning bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan ser’no so‘zlarini toping?

A) “...azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”

B) “...men har kimgaki va’da bersam, unga vafo qildim, har bir va’daga xilof ish qilmadim, qal’alarni muammosiz zabt etdim...”

C) “...kuch bilim va tafakkurdadir”

D) “...har bir mamlakat ahvoli, sipoh-u raiyatning kayfiyatini, turish-turmushini, qilmish-qidirmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni yozib menga bildirib turish uchun o‘zimga yaqin kishilardan voqeanavislar belgiladim”

6. Amir Temur davlatidagi aholining chidamliligi, go‘shqli va go‘shtsiz holatga sabr qilishi mumkinligi xususida kim yozib qoldirgan?

A) Marsel Brion

B) Rui Gonsales Klavixo

C) Mirzo Ulug‘bek

D) Ibn Arabshoh

## FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISH TARIXI



### ***Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:***

- 1) 4-5-6-rasmdagi inshootlar qanday maqsadlarda qurilgan?
- 2) 7-8-rasmlar Alisher Navoiyning dostonlariga ishlangan. Unda qanday manzara aks etgan?
- 3) Rasmlarda aks etgan tasvirlarda xalq farovonligiga oid omillarni toping.
- 4) 1-2-3-4-5-6-7-8-9-rasmlarda aks etgan tasvirlar Sizing hayotingiz bilan qanday bog'liqligi bor?
- 5) 4-5-6-rasmlarda tasvirlangan inshootlarning ijodkori kim?

Fuqarolik jamiyati rivoji to‘g‘risidagi qarashlar, fikrlarni rivojiga Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug‘ mutafakkirlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Ularning ilg‘or qarashlari ko‘p asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Farobiy jamiyatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma‘rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o‘zaro ko‘maklashuviga, bir-biriga yordam ber-

### Ijodiy faoliyat



*Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Farobiy yashagan davrini eslang.*

*Matndagi saylash, ozodlik, xavfsizlik kabi ushunchalarni bugungu kundagi ahamiyati vaqida fikr bildiring.*

“Madaniy va shahar aholisining o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar nokimi mutlaq bo‘lmaydi. Ular odamlar ora-

sidan chiqqan, sinalgan, eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, hatto ommaning manfaatini o‘z manfaatlaridan ortiq ko‘radilar, umumning manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-g‘ayrat va boyliklarini ayamaydilar”.

ishga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim degan hamda boshqaruvning jamoatchilik asoslari haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan.

## Ijodiy faoliyat



*Matndagi boshqaruv muddati, ezgu ishlar, davlatni idora qilish kabi tushunchalarni bugungi kundagi xalq hokimiyatchiligi bilan qanday o‘xshashlik tomonlari bor?*

"Olis mag‘ribdagi shaharlardan birining aho-lisi haqida naql qiladilarkim, zodagonlar va yer egalari mazkur shaharni navbatma-navbat boshqarar ekanlar. U yerda o‘lkani idora qilish a‘yonlar va yer egalari o‘rtasida navbatma-navbat bir-biriga o‘tib turarmish, kimga navbat kelsa, o‘sha uch oy hukm yuritarmish. Muddat tugashi bilan har qaysi hukmdor o‘z-o‘zidan o‘lkani idora qilish amalidan tushib, minnatdorlik uchun sadaqa beradi va o‘z ahli orasiga qaytadi, u bilan go‘yo kishandan bo‘shagandek xursand bo‘lar va o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lar emish. Bu shuning uchunki, davlatni idora qilish rohatdan mahrum bo‘lish, degan so‘zdir. Bunda u o‘sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qilaman, deb tinkasini quritish deganidir. Bu esa o‘z qo‘l ostidagilari va ularning o‘zlarini himoya qilish uchun tadbir tayyorlash borasida o‘z jonini qiynashdir"


“Mineralogiya”

Farobiy “jamiyat” va “davlat” tushunchalarini alohida mustaqil tushunchalar sifatida tadqiq etadi. Allomaning qarash-



“Inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Insonlarni jamiyatda mavjud bo‘lishining asosiy sharti ularning hamkorligidir. Inson o‘ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo‘lga kiritishi mumkin. Buning uchun esa jamiyatning barcha a'zolari uchun bir xilda ongli qonunlar va odil sudlov zarur. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlari shart”.

lariga ko‘ra, jamiyat hodisasi davlatga nisbatan birlamchi bo‘lib, o‘zak hodisa hisoblanadi. Davlat kishilarga jismoniy shaxs sifatida emas balki, insonning intellektual rivojlanishiga imkoniyat yaratishi zarur, deb hisoblaydi.



“Davlatni idora qilish talablaridan yana biri bu chetdan koriz qazib suv keltirish, qishlog‘-u dalalar obodonligi uchun katta ariqlar qazish, qal’alar qurish, shaharlar bino etish, zebo binolar, keng ko‘chalar, rabotlar qurdirishdir. Tolibi ilmlar uchun madrasalar ochish ham zarur, chunki bunda shohning nomi abadiy qoladi va uning savobidan mulkida subhu tinchlik hosil bo‘ladi.”

*Nizomulmulk*



Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino birinchi bo‘lib jamiyat qanday paydo bo‘lgan, degan savolga ilmiy asosda javob berishga harakat qilgan. Ular jamiyatning paydo bo‘lish sabablarini odamlarda aql va tafakkurning rivojlanishi, kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy intilishi bilan bog‘laganlar.

Ibn Sino jamiyatda adolatli mehnat taqsimoti mavjudligini har kim o‘z qobiliyati va iqtidoriga mos bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanishi asosida ekanligini uqtiradi. Ongli insonlar biladiki, agarda barcha kishilar podsho va hukmdor bo‘lganida edi, ularning barchasi halokatga uchrardi.

Nizomulmulk adolatli jamiyat qurishni davlat hokimiyatining vazifasi deb biladi. Shuning uchun ham u “Siyosatnoma” nomli asarida hukmdor va uning mansabdorlarida quyidagi umuminsoniy fazilatlar bo‘lishi lozimligini ilgari suradi: podshoh adolat o‘rnatishda sobitqadam bo‘lishi, kambag‘al va beva-bechoralarga yordam berishi, muhtojlarga davlat xazinasidan nafaqalar ajratishi, xayr-ehson harakatini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Nizomulmulkning jamiyat faoliyatini

### **Ijodiy faoliyat**

Adabiyot darsida olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.

*Alisher Navoiyning qaysi asarlarini o‘qigansiz?*

*Alisher Navoiy asarlarida mamlakat tinchligi, farovonligi bilan bog‘liq fuqarolik jamiyatiga oid qanday g‘oyalar ilgari surilgan?*

## Ijodiy faoliyat



*Mazkur matnni o‘qing. Alisher Navoiy tasvirlagan jamiyat haqida fikr bildiring.*

*Uni Fuqarolik jamiyati bilan bog‘lang.*

Iskandar kunning yarmigacha xalqning arzi-dodini tinglab, adolat poydevorini ko‘ngildagidek qilib o‘rnatdi. Otasining zamorida xaloyiqqa zarari tekkan nimaiki qonun-qoida bo‘lsa, xalqqa yetkazish maqsadida ularning hammasini bekor qildi. Shuningdek, boshqa shohlar tomonidan rasm qilingan, umumxalq

orasida adolatga hilof bo‘lgan qonun-qoidalarni ham tag-tomiri bilan buzdi va xaloyiqni barcha xavflardan qutqazdi. Adolat yo‘lini tutib, nohaq siyosatni bekor qildi. Fuqaro ehtiyojini hisobga olib ularni ikki yillik soliqdan ozod etdi. Amaldorlarning ishlarini tekshirib ko‘rib, yomonlarini ishdan haydadi, aksincha, yaxshi amaldorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularning martabalarini baland qildi. Bozordagi narh-navoni surishtirib olibsotarlar, yulg‘ichlarning jazosini berdi.

Tarozining ikki pallasini to‘g‘rilab, toshini temirdan yasattirdi va muhrladi. Uzunlik o‘lchovi bo‘lmish qarini (metrni) ham temirdan qildirdi... Bundan tashqari, el egrilik sari mayl qilmasin deb, g‘alla o‘lchaydigan idishlarni to‘g‘riladi. Adolat bilagiga quvvat bag‘ishlab, oltin tarozi ham o‘rnatdi. Yo‘lovchilarni xavf-xatardan qo‘riqlash uchun katta yo‘llar orasiga soqchilar qo‘ydi. Adolat qo‘lini shunday baland tutdiki, kiyik arslon hamlasidan xavfsiramadi, bulduruqlarga qarchig‘aylar oshino tutindi, ular go‘yo jo‘ja-yu, bunisi ona tovuqdek mehribon bo‘ldi.

*“Saddi Iskandariy” dostonidan*

tashkil etish bilan bog‘liq davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi fikrlaridan shunday xulosalar chiqarish mumkin: siyosat va davlat boshqaruvidagi, shuningdek, inson hayotidagi barcha zarur masalalarni bilish va ulardagi o‘zaro munosabatlarni anglash faqat amaldor yoki hukmdorgagina tegishli emas. Ular jamiyatning barcha a‘zolariga tegishlidir.

Shuning uchun ham tajribali, oqil, fozil kishilar bilan kengash va maslahatlar asosida siyosiy va boshqaruv qarorlari qabul qilish vositasidagina jamiyat barqarorligini ta‘minlash va adolat o‘rnatish, farovon hayot qurish mumkin.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ham jamiyatni boshqarishda ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanish zarurligini ta‘kidlaydi. U adolatli jamiyatga erishish uchun insonlar ma‘rifatli, ilimli bo‘lishi zarur ekanini o‘zining g‘azallari va dostonlarida ifoda etib beradi.

U adolatli rahbarning ish uslubi, uning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini tasvirlashga intiladi.

Insonlar hayotidagi eng afzal tomonlaridan biri yaxshilik yo‘lidagi o‘zaro yordamdir. Bu narsa ijtimoiy hayotni yuqori darajaga ko‘tarish, jamiyat a‘zolarining farovonligini oshirish va ularning qayg‘u-

#### Ijodiy faoliyat:

Alisher Navoiy

“Jamiyatning asosini ma‘rifiylik tashkil etadi”. degan fikrlariga munosabat bildiring

*“Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo‘lida hamkorlik qilmang”*

“Moida” surasining 2-oyati.

#### **Ijodiy faoliyat:**

Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini xususiy mulkka tayanadigan ko‘p tarmoqli bozor iqtisodiyoti tashkil etadi.

Mazkur fikrlariga munosabat bildiring.

alamlarini yengillashtirishdan iboratdir. Mana shuning o‘zi ham har bir shaxs va har bir jamiyatning baxtiyor bo‘lishi uchun o‘zaro yordamning zarurligini ko‘rsatadi. Insonlar o‘rtasida tenglik, totuvlik, o‘zaro yordam masalasi haqida milliy qadriyatlarimizda shuningdek, Qur’oni Karimda alohida ko‘rsatmalar mavjud. . “Yaxshilik” deganda bu dunyodagi barcha yaxshiliklarni: rostgo‘ylik, omonat, saxiylik, olijanoblik, mehr-muravvat, oqibat, to‘g‘riso‘z, adolatli, shirinso‘zlik, shijoat va hokazolarni tushunish mumkin. Har bir shaxs yoki jamiyatga zarar yetkazuvchi narsa yomonlik va dushmanchilikdir.

Iqtisodiy taraqqiyot uchun ham, fuqarolik jamiyati uchun ham xususiy mulkning ahamiyati yuksak. Busiz to‘laqonli fuqarolik jamiyati bo‘lishi mumkin emas. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatning asosini xususiy mulkdorlar tashkil etadi.

Bu sanoat, savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va boshqa yo‘nalishlardagi xususiy korxonalar, ijaraga beriladigan yer, ko‘chmas mulk, daromad keltiradigan qimmatli qog‘ozlar, yozuvchilar, shoirlar, kompozitorlar, kashfiyotchilar, ilmiy tadqiqotchilarga oid intellektual mulk asosida amalga oshiriladigan faoliyatdan

iborat. Aynan xususiy mulk asosida ijtimoiy munosabatlar jadallashadi, natijada esa jamiyat o‘z-o‘zini tashkil etadigan qudratli tizimga aylanadi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Fuqarolik jamiyati paydo bo‘lishi va shakllanishi zaruratini yuzaga keltirgan omillarni nimalar?
2. Forobiyning fuqarolik jamiyatiga oid qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati qanday?
3. Alisher Navoiy asarlarida adolatli jamiyat g‘oyasining ilgari surilishining mazmuni nimada?
4. Nizomulmulkning siyosiy qarashlarini fuqarolik jamiyati bilan bog‘lang.
5. Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Nizomulmulk va Alisher Navoiylarning qarashlaridagi umumiylik va o‘ziga xoslik tomonlarini aniqlang. Ularning qarashlari qanday jamiyat qurishga qaratilgan edi?
6. Alisher Navoiy o‘z asarlarida tinchlik, farovonlik va adolat tamoyillarini e‘tirof etadi. Shuningdek, Vazir sifatida faoliyat yuritgannini tarixdan bilasiz. Bugungi kunda Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ulug‘ yozuvchimiz Oybekning “Navoiy” romanini o‘qib chiqing va undan foydalanib Navoiyning xalq farovonligi yo‘lida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari ro‘yxatini tuzing.

## TEST

1. Quyidagi qaysi alloma “davlat kishilarga jismoniy shaxs sifatida emas, balki insonning intellektual rivojlanishiga imkoniyat yaratishi zarur” deb hisoblaydi?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Ibn Sino
- C) Nizomulmulk
- D) Abu Rayhon Beruniy

2. Mashhur “Siyosatnoma” asarining muallifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Ibn Sino
- C) Nizomulmulk
- D) Abu Rayhon Beruniy

3. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy jamiyatni necha qismga bo‘ladi?

- A) uch qismga: quyi, o‘rta, yuqori
- B) ikkita: fozillar va johillar
- C) uch qismga: ma‘rifatli, aqlli va bilimsiz
- D) ikkita: davlat va fuqaro

4. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiyning fikricha, odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido nima?

- A) umumiy mehnat
- B) oziq-ovqat topishga intilish
- C) o‘zaro hurmat
- D) insoniylik

5. “Minerologiya” asarining muallifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Ibn Sino
- C) Nizomulmulk
- D) Abu Rayhon Beruniy

6. Qaysi alloma asarlarida G‘arbdagi boshqaruv xususida gapirilib, u yerlarda a‘yonlar navbatma-navbat davlatni boshqarishi va 3 oydan keyin boshqa odamga lavozimni bo‘shatib berishi haqidagi fikrlar aytiladi?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Ibn Sino
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Alisher Navoiy

7. Qaysi alloma asarlarida jamiyat asosi ma‘rifiylik ekani g‘oyasi ilgari suriladi?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Ibn Sino
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Alisher Navoiy

8. “Navoiy” romanining muallifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Mirtemir
- B) Oybek
- C) Maqsud Shayxzoda
- D) Mirmuhsin

## DAVLAT VA JAMIYATNING FARQI, MUSHTARAK JIHATLARI. FUQAROLIK JAMIYATIDA DAVLAT

### *Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:*

1. *Siz o'zingizni jamiyat a'zosi deb hisoblaysizmi?*
2. *“Jamiyat” va “jamoat” tushunchalari orasidagi farqni qanday izohlaysiz?*
3. *Hech e'tibor berganmisiz? Chap qo'lingizning tirsakdan yuqori qismida emlanganingizni bildiradigan belgi bor. Nima uchun majburiy emlashlar amalga oshiriladi? Uni kim tashkil qiladi deb o'ylab ko'rganmisiz?*
4. *Har yili maktabingizda tibbiy ko'rikdan o'tasiz. Bularni kim tashkil qiladi deb o'ylaysiz?*
5. *Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Askarlari baquvvat el qudratli bo'lur, qudratli elning askarlari baquvvat bo'lur”, degan fikrlarini Prezidentimiz Islom Karimov “Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi”, deb davom ettirganlar. “Yurtning qudrati” deganda nimani tushunasiz? “Farzandlar sog'lig'i” faqat jismoniy bo'lishi kerakmi? Ma'naviy sog'lom bo'lish, deganda nimani tushunasiz? Bu salomatlikning davlatga qanday foydasi bor?*

Jamiyat - arabcha jamoa, jamlangan, birlashgan degan ma'nolarni bildiradi.

Jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va boshqa munosabatlarning ko'rinishidir.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichi – ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar orasida o'ziga xos qoidalar mavjud bo'lgan. Odamlar ilk bora to'da, urug' jamoalari va qabilalarga



birlashganlarida o‘zlariga yo‘lboshchi, urug‘ boshlig‘i va qabila boshliqlarini tayinlaganlar. Mehnat qurollarining takomillashuvi jarayoni

### **Ijodiy faoliyat**

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering:

*Qanday shart-sharoitlar xususiy mulkning shakllanishiga olib kelgan?*

*Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Davlatning ibtidoiy, urug‘chilik jamiyatidan ajralib turadigan belgilarini sanab bering.*

mehnat taqsimotini keltirib chiqargan.

Jamiyat – odamlarning o‘zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli. Odamlarning hayoti, eng avvalo, ishlab chiqarish, turmush farovonligini ta’minlovchi iste’mol buyumlarini ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq muayyan mushtarak faoliyat zaminida kechadi.

Davlat – jamiyatning shakllangan siyosiy instituti. Jamiyat taraqqiyotining yetuklashgan muayyan davrida paydo bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, “jamiyat – davlatning onasi”. Davlat esa jamiyat “farzandi”, uning mahsuli. Shunday ekan, jamiyat qanday bo‘lsa,

**Davlat** – majbur qilish kuchiga, ya’ni hokimiyatga ega bo‘lgan, o‘z fuqarolari, shuningdek, hududda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilotdir.

*Har qaysi jamiyatning demokratik nuqtai nazardan yangilanishi va yuksalishi shu jamiyatning, shu davlatning taraqqiyoti mahsuli ekanini hammamiz chuqur anglab olishimiz zarur.*  
Islom Karimov

Insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari e'tirof etilib, hurmat qilinadigan, davlat boshqaruvi ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan va ozchilikning manfaatlari himoya qilinadigan siyosiy tartibot – **demokratik** siyosiy tartibot deb ataladi.

davlat ham shunday bo'ladi va aksincha. Jamiyat o'z rivojida qanday bosqichlardan o'tsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o'zgarib, takomillashib boraveradi. Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlov apparatining borligi;

2) aholining hududlar bo'yicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashini bildiradi;

3) suverenitet, ya'ni ichki va tashqi siyosatni o'tkazishda mustaqil bo'lish;

4) davlatda mavjud bo'lgan barcha majburiyatlarni bajarish (soliq to'lash, vatanni himoya qilish va h.k.);

5) umumiy funksiyalarni (vazifalarni) bajarish, ya'ni hududini qo'riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiy farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.

Davlatlarning tashkil topishi bu – insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan sivilizatsiya tomon burilishi edi. Dunyoda birinchi sivilizatsiyalashgan davlatlar Qadimgi Sharqda miloddan avvalgi IV–III ming yilliklar davriga to'g'ri

keladi. Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlagan.

Jamiyat dastlab ijtimoiy hokimiyat, ya'ni hamma odamlarning hokimiyati tomonidan boshqarilgan. Odamlar turli qabilalarga birlashib, o'sha qabilada yuzaga kelgan muhim masalalarni birgalikda hal qilgan. Qabila ishlarini boshqarishda hamma ishtirok etgan. Bu demokratiya, ya'ni xalq hokimiyatining ilk sodda ko'rinishi — *ibtidoiy demokratiya* edi. Ishlab chiqarishning o'sishi, taraqqiyot natijasida asta-sekin jamiyatda siyosiy munosabatlar paydo bo'ldi.

Jamiyat shaxs, oila, mahalla va turli tashkilotlarni o'zida mujassam etadi. Ularni boshqarish va takomillashtirishda davlat

Huquqiy davlat – huquqning ustuvorligi hamda sud mustaqilligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, davlat hokimiyati vakolatlar bo'linishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan demokratik davlatdir.

### **Ijodiy faoliyat**

Jadvalni to'ldiring.

Jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari	Davlatning o'ziga xos xususiyatlari

tashkilotlari va kishilarning o'z-o'zini boshqarish organlari muhim rol o'ynaydi.

Davlat esa, jamiyat hayotini boshqarib, tartibga solib turadi. U qonun va huquq

Suqrotning si-yosiy-ahloqiy qarashlari shunday ishonch-e'tiqodga asoslanganki, unga ko'ra hokimiyat eng yaxshi, eng ahloqli, odil, boshqarish uquvi va tajribasiga ega bo'lgan fuqarolarga tegishli bo'lishi kerak.

birligidan iboratdir. Davlat hokimiyatning ko'rinishi va uning asosiy belgisidir. Davlatning mazmun-mohiyati ham jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'zgarib boradi.

Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimiga siyosiy tartibot deyiladi. *Siyosiy tartibot asosan ikki xil bo'ladi:*

**Demokratik;**  
**Nodemokratik.**

*Demokratik tartibot sharoitida insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari hurmat qilinadi. Fuqarolar davlat hokimiyat idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etadilar. Demokratik hokimiyatning yagona manbai xalq irodasi bo'ladi.*

Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xalqning ishtiroki,

*Mustaqillik deganda, uning ma'no-mazmunini biz avvalo huquq deb qabul qilamiz. Mustaqillikka erishish – bu o'z taqdirimizni qo'limizga olib, yurtimizning yer osti va yer usti boyliklariga ega bo'lish, biz qanday ulug' tarix, madaniyat va ma'naviyatga ega ekanimizni, o'zligimizni chuqur anglab, beqiyos salohiyatimizni ishga solish, qadriyatlarimizni, dinu diyonatimizni tiklash kabi buyuk va muqaddas burchimizni amalga oshirishdir.*

*Islom Karimov*

qonunlarning xalq tomonidan qabul qilinishi va xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishidir.

*...yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va ta'sirchanligi ona Vatanimiz O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shilish uchun bugungi kunda barcha imkoniyatlar yaratildi, deb aytishga to'la asos beradi.*

Islom Karimov

Huquqiy davlat bu – huquqning hukmronligi, qonunning ustivorligi, barchani qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, davlat hokimiyati bo'linish tamoyillari asosida tashkil etilgan demokratik davlatdir.

Davlat jamiyatning talablariga mos ravishda rivojlanib boradi. U iqtisodiy va ma'naviy omillar asosida hokimiyatning mamlakatda tartibotni ta'minlaydigan bir butun tashkilotga aylanadi. Davlat o'zining asosiy vazifasi sifatida **ichki va tashqi** siyosatini amalga oshiradi.

Har bir davlat o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Bu yo'nalishlar uning asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Davlatning mavjudligi, uning zarurligi, davlatning funksiyalarida o'z aksini topadi.

Davlatning funksiyalari - davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularda davlatning ijtimoiy jihatlarini ro'yobga chiqariladi.

Davlat o‘z faoliyatida bir qancha funksiyalar (faoliyat yo‘nalishlari)ni amalga oshiradi. Bu funksiyalarni mamlakat ichida yoki tashqarisida amalga oshirilishidan kelib chiqib tashqi va ichki funksiyalarga ajratish mumkin.

*Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U xar qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotning hosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir.*

*Islom Karimov*

Mustaqillik – bu hech kimga qaram bo‘lmaslik. Xalqimizning milliy manfaatlarini, uzoq va davomli maqsadlarini ko‘zlab, iqtisodiyotimizning barqaror sur‘atlar bilan o‘rishini ta‘minlashdir.

Jamoat xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etib, bu mamlakat tinchligi, osoyishtaligi va barqarorligini ta‘minlash davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Jamoat xavfsizligi mahalla, hudud va mamlakat tinchligini ta‘minlash maqsadida tuzilgan davlat, nodavlat va ko‘ngillilardan tashkil topgan kishilar uyushmasidir. Bu eng avvalo, mahalla qoshida tashkil etilgan va mahalla posboni hamkorligida amalga oshirilayotgan faoliyat hisoblanadi. ”O‘z uyingni o‘zing asra” tamoyili asosida mahallalarda turli xavf-xatarlarni bartaraf etish va bunga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Mahallaga kim keldi va nima maqsadda kelganligi hisobga olinib, bunga yoshlar va mahalla faollari va keng jamoatchilik jalb etiladi.

## Savol va topshiriqlar

**1-davlatda:** Markazlashgan siyosiy va iqtisodiy tizim mavjud. Bu davlatda boshqarish markazdan yetkaziladigan qat'iy farmon, buyruq va rejalar asosida amalga oshiriladi. Bu hujjatlarda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda barcha fuqaro va tashkilotlarning qanday faoliyat bilan shug'ullanishi kerakligi aniq belgilab berilgan. Ko'rsatmalarni buzganlik uchun qanday jazo choralari ko'rilishi ham aniq ko'rsatilgan.

**2-davlatda:** Markazlashgan rejalar xalq tomonidan saylangan parlamentda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Farmonlar va buyruqlar bilan bir qatorda ana shu parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar ham mavjud. Lekin bu qonunlardan ko'ra ko'proq mansabdor shaxslar tomonidan beriladigan ko'rsatma va buyruqlarning ta'siri kuchliroq.

**3-davlatda:** Davlat hokimiyati uchga bo'linadi:

- 1) qonun chiqaruvchi;
- 2) ijro etuvchi;
- 3) sud hokimiyati;

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

*Nima uchun hokimiyat mana shunday uchta qismga bo'linishi maqsadga muvofiq sanalishini bilasizmi? Fikringizni bayon qiling.*

*Bu uchala organdan qaysidir birini qolganlaridan muhimroq desa bo'ladimi? Nima uchun?*

## Ijodiy faoliyat

Anvar maktabdan qaytayotgan edi. Ko'chasining boshiga yetganida uning dimog'iga gazning hidi urdi. Gazning hididan tezda boshi aylandi. Tezroq o'sha yerdan o'tib ketdida, uyga borib bobosiga bu haqida gapirdi. Bobosi bo'lsa, qani qayerda bunday hid kelmoqda, deb uni ko'cha boshiga boshlab ketdi. Ular voqea joyiga yetib keldilar. Bobosi bu holatni tezda 101 raqamiga sim qoqib, voqea haqida xabar berdi. Haqiqatdan ham gaz quvuri o'tgan joyda gaz chiqish holati mavjud ekan. Mutaxassislar tomonidan tezda bu holatning oldi olindi.

1. Gaz quvuri ularning uy oldidan emas, balki ko'chaning narigi boshidan o'tgan ediku? ularga ziyoni yo'q ediku. Anvarning bobosi nima uchun xavotirga tushdi?

2. Bu voqeani Anvar va uning bobosiga qanday daxli bor?

3. Ko'chaning birinchi muyulishida bir beva ayol yashardi. Kechasi uning uyiga istgichning nosozligi tufali uyida yong'in sodir bo'ldi. Uning uyi mahalladagi hech bir hovliga tutashmagan bo'lsada, mahallaning katta-kichik odamlari o't o'chirish bilan band bo'ldilar. O't o'chiruvchilar kelganda ham odamlar yong'in sodir bo'lgan xonadaondan uni buni olib chiqishar, Mahalla raisi, ko'rsatgan yerga yig'ardilar.

Odamlar yelkama-yelka turib, bir-birlariga suv uzatishar, kimdir qum separd. Yong'in bartaraf etildi. Mahallaning ahalligi tufali zarar katta bo'lmadi.

Mahalla aholisini nima birlashtiradi?

Mahalla aholisini harakatlarini "daxldorlik" iborasi bilan bog'lash mumkinmi?

4. Daxldor bo'lish, faol fuqarolik, mas'uliyat, majburiyat kabi tushunchlarini bir-biri bilan bog'lab ko'ring.



5. Har yili yangi yil oldidan Xalq ta'limi vazirligi "Qish mavsumini betalofat tashkil etish to'g'risida" buyruq qabul qilib, uning ijrosini qat'iy nazoratga oladi?

- nima deb o'ylaysiz, agar Xalq ta'limi vazirligini davlat tashkiloti desak, unda vazirlikning bu buyrug'i kim uchun chiqarilgan? undan fuqarolarga, aynan sizga qanday manfaat bor?

- Maktabingiz nima uchun "davlat maktabi" deb atalishini bilasizmi?

6. Kasalxonalaridagi xarajatlarning bir qismini davlat amalga oshirishining sababini aytib bera olasizmi?

7. Kundalik hayotingizdan davlat bilan bog'liq bo'lgan holat va vaziyatlarga misollar keltiring.

## TEST

1. Muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilardan iborat birlik – bu ...

- A) jamiyatdir
- B) davlatdir
- C) mahalladir
- D) oiladir

2. “Jamiyat” so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) forscha so'z bo'lib, birlashma degan ma'noni anglatadi  
B) arabcha so'z bo'lib, jamlangan, birlashgan degan ma'noni bildiradi

C) turkcha so'z bo'lib, istiqomat, yashash degan ma'noni bildiradi

D) arabcha so'z bo'lib, to'plam, dasta, ittifoq ma'nolarini bildiradi

3. Qadimgi Sharqda ilk davlatlar qachon paydo bo'la boshlagan?

- A) mil.avv. VI asrdan
- B) mil.avv. V asrdan
- C) mil.avv. IV asrdan
- D) mil.avv. II asrdan

4. Davlatga nisbatan qo'llaniladigan siyosiy tartibot necha xil bo'ladi?

- A) ikki xil: respublika, monarxiya
- B) uch xil: demokratiya, cheklangan demokratiya, mutlaq monarxiya
- C) uch xil: konstitutsiyaviy monarxiya, monarxiya
- D) ikki xil: demokratiya, nodemokratiya

5. Davlatning fuksiyasi umumiy ko'inishda necha xil bo'ladi?

A) ikki xil: boshqaruv, ijro

B) uch xil: demokratiya, cheklangan demokratiya, mutlaq monarxiya

C) uch xil: konstitutsiyaviy boshqaruv, qonunlar ijrosi

D) ikki xil: tashqi va ichki

6. Dunyoda birinchi sivilizatsiyalashgan davlatlar qayerda paydo bo'lgan?

A) Qadimgi Sharqda mil. avv. IV-III ming yilliklar davriga to'g'ri keladi

B) Markaziy Osiyoda mil. avv. III ming yilliklar davriga to'g'ri keladi

C) G'arbiy Yevropada mil. avv. I ming yilliklardavriga to'g'ri keladi

D) Sharqiy Osiyoda mil.avv. II ming yillikka to'g'ri keladi

7. Davlat hokimyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimi nima deb ataladi?

A) davlatning boshqaruvi

B) davlatning funksiyalari

C) siyosiy tartibot

D) davlat mexanizmi

8. "Mustaqillik deganda, uning ma'no-mazmunini biz, avvalo, ... da qabul qilamiz". Ushbu berilgan fikrdagi tushirib qoldirilgan so'zni toping.

A) huquq

B) erkinlik

C) ozodlik

D) hamjihatlik

## FUQARONING BURCH VA MAS'ULIYATI



### *Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:*

*Fuqarolik jamiyatida odamlar qanday bo'ladi? Fuqarolik jamiyatining namunaviy a'zosi bo'lish uchun bizda qanday fazilatlar mujassam bo'lishi kerak?*

*1. Fuqarolik burchi nima? U qachon vujudga keladi.? burch va majburiyat bir-biridan nima bilan farq qiladi?*

*2. Har bir rasmni alohida-alohida kuzating. "Fuqarolik burchi" iborasi bilan rasmlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud:?*

*1-va 2-rasm, 2-va 4-rasmlarda tasvirlangan insonlar o'rtasida qanday burchlar mavjud?*

*1,3,4,5,6- rasmlarda tasvirlangan insonlarning 2 rasmda tasvirlangan insonlar oldida burchlari va mas'uliyatlari bormi?*

*4-rasmda tasvirlangan askarni 1,2,3,5,6-rasmlardagi insonlar oldida qanday burchi bor?*

3 va 6-rasmlardagi insonlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?  
5-rasmda tasvirlangan o'quvchilarning jamiyat oldida qanday burchlari bo'lishi mumkin?

*"...chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi"*

Islom Karimov

Fuqarolarning burchi va mas'uliyati haqida bizning milliy qadriyatlarimizda ko'plab ibratlar bor. Masalan, oila, qo'shni oldidagi, mahalla, Vatan oldidagi burch. Inson o'z burchini anglagan sari unda mas'uliyatlilik oshib boradi. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yetsa, u jamiyat oldida mas'ulligini

*Fuqarolik jamiyati - bir-birlari bilan bog'langan erkin va teng huquqli fuqarolar uyushmasi.*

Aristotel.

### **Ijodiy faoliyat**

Gulnoza mahalla gazaridagi do'konga kirib, uni-buni xarid qildi, ammo andisha qilib, olgan mahsulaotlarini chekini so'ramadi.

Gulnoza fuqarolik qoidalariga rioya qildimi?

uning bu harakati qanday muammolarga sabab bo'lishi mumkin?

Siz do'kondan xarid qilganingizda olgan mahsulotlaringiz chekini so'raysizmi? nima uchun? fikringizni asoslang.

*“Axloqiylik avval qat’iy talab shakli-da qo’yiladi. Unga rioya qilish shartligi uchun bo’ysuna boshlaydilar. Biroz o’tgach bu ixtiyoriy odatga aylanadi va oxiri u tabiiy, odamga huzur beruvchi, yoqimli fazilatga aylanadi”.*

O. Nitsshe

Eslab ko’ringchi, onangiz yoki kattalar sizni maktabga, ko’chaga kuzatishayotganda “birov bilan urushmang“, “birivni hafa qilmang“, “kattalarga salom bering“ va boshqalar deb ogohlantirishganmi? Ularni bu harakatini qanday izohlagan bo’lardingiz?

ham tushunib boradi. Bir misol bilan fikrimizni tushuntiramiz: Tadbirkor sharbat ishlab chiqaradi. U mas’uliyatni his qilgan holda odamlarning sog’lig’iga ziyon yetkazmaydagan, sara mahsulotlardan foydalandi. Yaroqlilik muddatini ham to’g’ri qo’ydi. Umuman olganda barcha sanitariya gigiena va boshqa tartib qoidalarga rioya qildi. To’g’ri, bu vaziflarini nazorat qiladigan davlat tashkilotlari ham bor, ammo tadbirkor o’zining jamiyat oldidagi mas’uliyatga sidqi dildan yondoshadi.

Ma’naviyat ham huquq va burch kabi odamlarni birlashtiradi. Milliy o’zlikni anglash, vatan ravnaqi tuyg’usi odamlarni ma’naviy tomondan birlashtirsa, bir davlat fuqaroligi bu birlikni qonunlar bilan quvvatlab turadi. Shuning uchun huqu-qiy madaniyat oramizda qancha tez urf bo’lsa, millat shuncha tez yuksaladi.

Fuqarolik jamiyati - ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya natijasi. “Inson omili” erishgan mukammallik darajasi. U avvalo odamlarning ong tafakkurida “quriladi”. Bunda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ikki sohasi ishtirok etadi. Biri – qonunchilik, qonun ijodkorligi bo’lsa, ikkinchisi – ana shu huquqiy

## Ijodiy faoliyat:

Yo‘l chetida yoshi chamasi 50 lar atrofidagi bir kishi daraxtga suyanib turardi. Yo‘ldan o‘tayotgan odamlar boyagi kishiga beparvo o‘tib borar, hechkimni u kishi bilan ishi yo‘q edi.

1) Siz ana shunday vaziyatda nima qilgan bo‘lardingiz.

a) daraxtga suyanib turgan odamni oldiga borib undan yordam kerakmi deb so‘ragan bo‘lardim.

b) e‘tibor bermasdim.

c) vaqtinga qarardim. Vaqtim bemalol bo‘lsa, yordam berardim.

(davomi) Akbarjon maktabdan qaytayotgan edi, Akbarjon biroz qarab turdi-da, indamay o‘tib keta olmadi. Uning hayolida balki o‘sha kishini mazasi bo‘lmayotgandir? balki yordam kerakdir? deb o‘yladi-da boyagi odamning oldiga borib uning ahvolini so‘radi. Daraxatga suyanib turgan odam, yuragi bezovta qilayotganini ta’kidlaganidan so‘ng, Akbarjon bekatda turgan odamlar oldiga borib, ahvolni bayon qildi. Kimdir qo‘l telefonidan tez yordamga qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lsa, yana kimdir, boyagi odamni oldiga kelib, uni qulayroq joyga o‘tkazishga harakat qilardi, yoshi 40 lardan oshgan bir opa bo‘lsa, uning qo‘lini kaft qismini massaj qilib, tilini tagiga cho‘ntagidan olgan dorisini solishga yordam berardi. Tez yordam mashinasi ham yetib keldi. birinchi yordam ko‘rsatildi.

2) Akbarjonnig harakatiga munosabat bildiring. Siz shunday qilgan bo‘larmidingiz?

mazmun-mohiyatni odamlarning fikrlariga, niyatlariga, xulq-atvoriga ko‘chiruvchi soha – huquqiy tarbiya, ma‘rifat.

*“Qonun unga  
bo‘ysunuvchilarga  
yordam beradi.*

Demokrit

O‘z huquqini  
anglash odamga  
boshqa odamning  
ham xuddi shunday  
huquqlari borligini  
bildirib, burchlarini  
anglatadi.

Huquqiy madaniyatning har bir kishi tomonidan hamma joyda, har soatda amal qilishiga qanday erishsa bo‘ladi? Asosiy shartlardan biri odamlarni fuqarolik jamiyati qadriyatlarini ruhida tarbiyalash. Burchlariga hech shubhasiz, muhokamasiz, ixtiyoriy rioya qilishga o‘rgatish. Bu esa birdaniga bo‘ladigan ish emas.

Insonlarning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi ulardan qaerda, qancha, qanday foydalanishga ta‘lim muassasalaridan boshlab o‘rgatiladi.

Huquq – har soatda, turli vaziyatlarda qo‘llaniladigan, odamni umrbod(hatto vafot etganidan keyin ham) himoya qiladigan, nihoyatda nozik vosita. Undan foydalanmaslik ham, noto‘g‘ri foydalanish ham odamga ziyon keltiradi.

Farobiyning fozil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlariga ko‘ra, baxt-saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo‘lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi. Shu ma‘noda, fozil jamiyatda avvalo, erkinlik mavjud bo‘ladi. Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bo‘lib, bu me‘yorlar fozil jamiyatning asosi bo‘ladi. Shu bilan birga, Farobiy fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. U yetuklashgani sayin o‘z a‘zolarini himoyaga ola boradi.



Chunki bir fuqaroning huquqlari ikkinchi fuqaroning huquqlari boshlangan nuqtda tugaydi. Shu tariqa har bir kishining hayoti, sha'ni, boyligi, intellektual mulki, sog'lig'i, farzandlari, kelajagi, yaxshi nomi mustahkam himoyada bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-bobida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining barcha qonunlari Konstitutsiyaning norma va prinsiplari asosida yaratilgan.

Har bir fuqaro qonun oldida tengdir va boshqa fuqarolarning millati, tili, dini va e'tiqodini hurmat qilishi shart.



O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

18-modda

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida fuqarolarning boshqa shaxslar erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilishi belgilangan. Boshqa fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish, avvalo, fuqaro o'ziga tegishli burchlarni bajarish orqali kirishadigan huquqiy munosabatlarda: fuqarolik, uy-joy, oila-nikoh va boshqa masalalarda namoyon bo'ladi.

Asosiy qonunda belgilanganidek,

Qonunlar jamiyatdagi muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va xalqning xohishirodasiini ifoda etadi, turli siyosiy kuchlar, ijtimoiy tabaqalar, guruhlar manfaatlarining o'zaro murosasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va davlat bir biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir.

Har bir davlat lozim bo'lgan qonunlarini o'zi yaratadi. Konstitutsiyamizning 57-moddasida Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi,



O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hiech kim haqli emas.

18-modda

shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzulishi va faoliyati taqiqlanishi belgilab

qo'yilgan.

Fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini kamситadigan ma'lumotlar tarqatilgan taqdirda, ularni himoya qilish sudning birinchi darajali vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 49-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va ma'daniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir", - deb belgilangan. O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklari bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, madaniy yodgorliklarni ehtiyotlash va saqlash har bir fuqaroning burchidir.

Ota-bobolarimizdan qolgan bunday buyuk merosni biz avaylab-asrab kelgusi avlodlarga yetkazishimiz uchun mas'uldirmiz.

Ushbu ezgu niyatlar yo'lida mustaqilligimizning ilk kunlari-danoq, dastlabki qadamlar qo'yildi. Movarounnahr va Xurosonda tug'ilib ijod etgan ko'plab mutafakkirlarimiz - Imom Buxoriy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Rudakiy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy, Bobur va boshqalar madaniy merosini o'rganish, ularni asarlarini nashr qilish, yubileylarini o'tkazish kabi qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Soliqlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan belgilanib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Soliq to‘lashdan bosh tortgan shaxslar tegishli ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

*Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo‘lib qoladi.*

Islom Karimov

Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan biri ularning qonun yo‘li bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash majburiyatidir. Asosiy Qonunning 51-moddasiga ko‘ra, Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar.

Konstitutsiyamizning 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish-O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatni mudofaa qil-

ish davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublkasi hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasini tash-qaridan bo‘ladigan qurolli tajovuzdan himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy burchidir.

### Savol va topshiriqlar:

1. Oila, mahalla va davlat, jamiyat oldidagi burchlaringizni ro‘yxatini tuzing.

Burchlar			
Oila	Mahalla	Davlat	Jamiyat

2. Burch va majburiyat o‘rtasidagi qanday farqlar mavjud?

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarining burchlarini belgilab qo‘yilishidan qanday maqsadlar nazarda tutilgan, deb o‘ylaysiz?

4. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘z burchlarini bajarmagan taqdirda qanday huquqiy oqibatlar vujudga keladi?

5. Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik yoki ularadan bo‘yin tov-lash jamiyat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

### 1-vaziyat

Bekatda turgan ayollar o‘zaro gaplashib turishibdi. Ulardan biri: “Men o‘g‘limni o‘qishga kiritmoqchiman, kim bilan gaplashsam ekan?” – dedi. Ikkinchi ayol esa: “Menimcha, hech kim bilan gaplashishning keragi yo‘q o‘g‘lingizning bilimi bo‘lsa, shundoq ham o‘qishga kirib ketadi”, - dedi.

Ulardan qaysi birini huquqiy madaniyatli inson desa bo‘ladi?

## **2-vaziyat**

A. ismli o‘quvchi darsga tayyorgarliksiz keldi. O‘qituvchi uni sinf oldida izza qildi. A. esa: “Sizning nima haqingiz bor, menga tanbeh bergani, mening ota-onam bor, xohlasam, darsga qatnashaman, xohlamasam yo‘q”, - deb javob berdi. Ushbu vaziyatni baholang, fikringizni bildiring.

## **3-vaziyat**

Gulnora dugonasi Saida bilan darsdan qaytayotgan edi. Saida avtobus bekatida turgan yoshi chamasi 40 lar atrofidagi ayolga salom berdi, Gulnora dugonasi salom bergani uchun, uning tanishi bo‘lsa kerak, deb xayolidan o‘tkazdi-da, u ham salom berdi. Saida yo‘lda uchragan o‘zidan katta har bir yo‘lovchiga salom berib borar ekan, Gulnoraning g‘ashi kelib: “Nima muncha salom beraverasan, nima hamma uchragan odam sening tanishlaringmi? Kimdir alik oldi, kimdir senga bu qiz nega menga salom berdi, deb taajjublanib qarab qo‘moqda-ku? E borey endi sen bilan birga yurmayman, odamni uyaltirib yubording...”

Siz nima deb o‘ylaysiz, Saida to‘g‘ri ish qildimi? Siz kimlarga salom berasiz?

Salomlashish fuqarolik burchimi? Agar bu burch bo‘lsa u qayerda qayd etilgan?

Fuqarolarning jamiyat oldidagi burchlarini biror hujjatda aks etishi shartmi?

## TEST

1. “Qonun – unga bo’ysunuvchilarga yordam beradi”, degan fikrlar kimga tegishli?

- A) Aritotel
- B) Suqrot
- C) Demokrit
- D) Konfutsiy

2. Fuqarolarning boshqa shaxslarning sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilishi lozimligi to’g’risidagi me’yor qaysi hujjatda o’z ak-sini topgan?

- A) “O’z-o’zini boshqarish organlari to’g’risida”gi Qonunda
- B) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida
- C) Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 71-moddasida
- D) “jamoat birlashmalari to’g’risida”gi Qonunda

3. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi masalasi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida belgilab qo’yilgan?

- A) 48-modda
- B) 12-modda
- C) 61-modda
- D) 18-modda

4. Quyidagi qaysi omil fuqarolarning burch va majburiyatiga kir-maydi?

- A) Soliq va mahalliy yig’imlarni to’lash
- B) harbiy xizmatni o’tash
- C) bepul ta’lim olish
- D) tarixiy-madaniy meros ob’ektlarini asrash

5. Quyidagi qaysi omil fuqarolarning burch va majburiyatiga kiradi?

- A) mamlakatni mavkuraviy hurujlardan himoya qilish
- B) malakali tibbiy xizmat ko'rsatish
- C) bepul ta'lim olish
- D) tarixiy-madaniy meros ob'ektlarini asrash

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddalarida fuqarolarning burchlari haqidagi qoidalar yozib qo'yilgan?

- A) 47-52-moddalarida
- B) 36-42-moddalarida
- C) 32-35 moddalarida
- D) 18-24-moddalarida

7. "... baxt-saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo'lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi ..." ushbu falsafiy qarashlar kimga tegishli?

- A) Abu Nasr Farobiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- C) Abu Ali ibn Sino
- D) Al-Xorazmiy

8. Movarounnahr va Xurosonda tug'ilib ijod etgan mutafakkirlar nomlari tog'ri yozilgan qatorni toping.

A) Imom Buxoriy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy

- B) Rudakiy, Fazliy Namangoniy, Zebuniso
- C) Nizomiy Ganjaviy, A.Navoiy, Inb Arabshoh
- D) Ahmad Farog'iy, Mashrab, Mahmud Zamaxshariy



## FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA ULARNING JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI

### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar:

1. Tarixda "kosiblar", "charxchi", "chilangar", "taqachi", "temirchi", "bo'zchi"lar kabi nomlangan mahallar bo'lgan. mazkur mahalladagi odamlarni nima birlashtirgan?

2. Nilufar dorixonadan dori sotib oldi. Uyiga kelib qarasa, dorining iste'mol muddati o'tganligini aniqladi. Nilufar dorixonaga qaytib borib, dorini qaytarib berdi. Lekin, dorixona boshliqlaridan muddati o'tgan dorilarni peshtaxtadan olib tashlashga majbur qilindi. Uning bu harakatidan dorixona xodimlarining jahli chiqsa ham, Nilufar o'zining fikrida qat'iy turib oldi.

*Bunday vaziyatda Siz nima qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?*

*Nilufarning bu harakatini faol fuqarolik burchi, deyish mumkinmi?*

Fuqarolik jamiyatini kengroq va chuqurroq tasavvur qilishda biz aholining keng qatlamlari, ularning kasb-kori va qiziqishlarini hisobga olish lozim. Aynan tashkilot, uyushma, birlashma va partiyalar millatni, xalqni birlashtirib farovon jamiyat qurish maqsadini amalga oshirganlar.

Fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun

hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta'minlashda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tashkilotlarning turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolarning muayyan tashkilotlarga



*“O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”*

56-modda

uyushishi qadimdan oq mavjud bo'lgan. Turli hunarmandchilik mahallalari, uyushmalar hamda birlashmalar o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlarda shakllangan, jamiyat a'zolarini bir maqsad atrofida birlashtirish-



*Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy ado-*

*vatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.*

*Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.*

57-modda.

ga muhim rol o'ynagan.

O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholini turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va

*Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q".*

Islom Karimov

chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;

- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;

- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi-ni joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;

- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarning



Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

15-modda.

rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda deyarli barcha nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishi mumkin.



**Nodavlat notijorat tashkiloti** - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foydani) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda

olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 2-modda

orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar.

Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda faol ishtirokini ishtiroklarini ta'minlashga ko'maklashadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad inson hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir.



*Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.*

Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari, o'z navbatida, alohida shaxs uchun uning hokimiyat manbai ekanligini his qilishga hamda uning layoqati va harakati, obro'si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## Ijodiy faoliyat:

Oilangizda, mahallangizda qanday tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish mumkin. Buning uchun mamlakatimizda huquqiy asoslar bormi?

Fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi turli birlashmalar, tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar va uyushmalar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

Quyidagi jadvalni toʻldiring.

OAV	Siyosiy partiyalar	NNT	uyushma va fondlar
<i>Namuna:</i> “Xalq soʻzi” gazetasi	“Milliy tiklanish: demokratik partiyasi	“Kamolot” YoIH	Kasaba uyushmasi

## Savol va topshiriqlar.

1. Nima uchun odamlar partiyalar, tashkilot va uyushmalarga birlashadilar? Bundan kutilayotgan maqsad nima bilan belgilanadi?
2. Jamoat birlashmalari bilan bogʻliq qanday qonunlar qabul qilingan?
3. Jamiyat hayotida siyosiy partiyalar qanday vazifalarni bajaradi?
4. ”Kamolot” yoshlar tashkiloti Sizning hayotingizda qanday rol oʻynaydi?
5. Nodavlat notijorat tashkilot qanday tashkilot?
6. Siyosiy partiya qanday tashkilot va uning vazifasi nimadan iborat?

## TEST

1. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan nechtdan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan?

- A) 200 dan ortiq
- B) 300 dan ortiq
- C) 500dan ortiq
- D) 1000 dan ortiq

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi bobi jamoat birlashmalari faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslariga bag‘ishlangan?

- A) XIII bobi
- B) XVI bobi
- C) XII bobi
- D) XVII bobi

3. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad nima?

A) Inson hayotini muhofaza qilish, qonunlarni mukammallashtirish

B) Insonning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir

C) Alohida shaxs uchun uning hokimyat a’zosi ekanligini his qilishga hamda uning jismoniy layoqati va obro’si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta’minlash

D) Qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarni qabul qilishda barcha aholi vakillarining qatnashishini ta’minlash



4. “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi” ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi moddasida berilgan?

- A) 56-moddasida
- B) 54-moddasida
- C) 53-moddasida
- D) 52-moddasida

5. Fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ladi?

- 1) aholini turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etadi;
- 2) fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- 3) ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- 4) milliy o‘zlikni anglashda, jamiyat a‘zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- 5) aholining qonun chiqarishda, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda bevosita ishtirok etishi;
- 6) butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;
- 7) nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi;

8) davlat boshqaruv organlari faoliyatini aholi nazoratiga oladi.

A) 1, 4, 5, 8

B) 1, 2, 3, 4, 6, 7

C) 2, 5, 7, 8

D) 3, 4, 5, 6, 7, 8

6. Nodavlat va notijorat tashkilotlariga aholi nima maqsadda birlashadilar?

A) davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida

B) o'zlari va oilalari manfaatini himoya qilish maqsadida

C) mamlakat chegaralari xavfsizligini himoya qilish maqsadida

D) davlat boshqaruv organlari faoliyatini tartibga solish maqsadida

7. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'ying.

O'zbekiston Res-publikasida ... belgilangan tartibda ...dan o'tkazilgan .... uyushmalari, ... partiyalar, olimlarning ...lari, xotinqizlar, .... va ... tashkilotlari, .... uyushmalar, ... harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari .... birlashmalari sifatida ... etiladi.

## GLOSSARIY:

**Adolat** (arabcha. Odillik, to'g'rilik) – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri. Jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalarining asl insoniy ideallarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi.

**“Avesto”** – mil. av. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida, Xorazm vohasida yaratilgan va “Avesto”, ya'ni “Qat'iy belgilanga qonunlar” deb nomlangan kitob; zardushtiylik dinini shakllantirishga asos bo'lgan nazariy manbalarning umumiy nomi va bu dinning asosiy kitobi. Unda ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashga oid fikrlar, ezgu g'oyalar, ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar ham o'z ifodasini topgan.

**Axborot resurslari** – shaxs, jamiyat va davlatning hayoti va faoliyati jarayonida olingan biror bir shaklda hujjatlangan ma'lumot.

**Barqarorlik** – qat'iy, turg'un vaziyat. Barqarorlik narsa va hodisalarga xos qonuniyatli muayyanlikni ifodalovchi tushuncha.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi iqtisodiy qonun-qoidalari asosida boshqariladigan tizim. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlaridagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Erkin ishbilarmonlik, ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakllarining ko'pligi, bozor narxining shakllanishi va raqobat muhiti, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar va davlatning xo'jalik faoliyatiga aralashuvini cheklash tamoyillariga asoslangan iqtisodiyot.

**Vatan** – 1) inson tug'ilib o'sgan, uning ijtimoiy va ruhiy-madaniy tiklanish jarayoni sodir bo'lgan mamlakat; 2) tabiiy-jug'rofiy sharoiti, aholisi, ijtimoiy-madaniy xususiyati bilan tarixiy nuqtai-nazardan aniq

bir davlatga tegishli bo‘lgan hudud; 3) inson tug‘ilgan aniq aholi punkti, joyi; 4) biror-bir fenomen, ixtiro, ijtimoiy g‘oya, siyosiy muassasa va boshqalar paydo bo‘lishining boshlang‘ich joyi (masalan Buyuk Britaniya – parlamentarizm, O‘zbekistonda - kurash, Kanada - xokkey Vatani). Bu tushuncha «yurt» tushunchasiga juda yaqin va kesishadi.

**Islohot** – progressiv o‘zgarish, mavjud bo‘lgan yo ijtimoiy tuzumni asosi saqlangan holda biror-bir tomondan jamiyat hayotini qayta qurish.

**Iqtisodiy islohot** – davlatning iqtisod tizimini yoki iqtisodini boshqarishni yo‘lga qo‘yish va amalga oshirishdagi katta o‘zgarishlar. Iqtisod tizimi samarasining pastligi iqtisodiy inqirozlar paydo bo‘lganda va iqtisod odamlar ehtiyojini qondirishga loyiq bo‘lmaganda mamlakat o‘z taraqqiyotida boshqa davlatlardan orqada qolganda yuzaga kelgan sharoitlar tufayli o‘tkaziladi.

**Konsepsiya** – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki soha taraqqiyotini asoslab berishni o‘z ichiga olgan qarashlar majmui. Konsepsiya tor doirada emas, balki turli sohalarni o‘z ichiga qamrab olgan miqyosi bilan farqlanadi, unda rivojlantirishning yo‘nalishlari hamda asoslari belgilab qo‘yiladi.

**Liberal** – 1) erkin fikrlovchi, hurfikr; ba'zan ortiqcha ko‘ngli bo‘shlikka moyil odam; 2) liberalizmning izdoshi va tarafdori demakdir.

**Manfaat** –1) amalga oshirishga undaydigan dalillar bilan asoslangan, tan olingan ehtiyojlar; 2) ijtimoiy harakatlarning real sababi. Manfaatning ob'ektiv asosi, ma'lum bir jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlardir.

**Milliy qadriyatlar** – bu shaxs, jamiyat va davlatning xavfsiz hayot kechirish va progressiv taraqqiyotidagi ehtiyojlarini qondiruvchi vosita, hodisa va predmetlar yig‘indisidir.

**Nodavlat va notijorat tashkilotlar** (NNT) — davlatga qarash-

li bo‘lmagan, ammo ma’lum qonunlar yoki me’yoriy hujjatlarga bo‘ysungan holda faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalar. Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. Aholining ayrim yoki muayyan yirik toifalarining ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab ishlashga ixtisoslashgan, hukumatga qarashli bo‘lmagan umummilliy tashkilotlar. Bunday tashkilotlar jumlasiga “Mahalla”, “Nuroniy” jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Nogironlar uyushmasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati kiradi.

**Tanazzul** – taraqqiyotning ziddi, tabiiy-ijtimoiy o‘zgarishlarning beqarorlashuvi, inson va jamiyatning zaiflashib, muammolar ichida qolganini anglatuvchi tushuncha.

**Taraqqiyotning o‘zbek modeli** – xalqimizning milliy davlatchilik an’analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg‘or yutuqlariga aslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

**Tashqi siyosat**– dunyo davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarda ma’lum bir davlat tomonidan amalga oshiriladigan ustuvor tamoyil va harakatlar majmuasi.

**Tenglik** – odamlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqalaridan qat’iy nazar bir xilligini ta’minlaydigan siyosiy va fuqarolik huquqlari, teng imkoniyatlari.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va qandaydir farqlanishlar bo‘lishidan qat’iy nazar barcha odamlar uchun mushtarak bo‘lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

**Xususiy mulk** – Eng qadimgi va keng tarqalgan mulk xususiy shakldagi mulk bo‘lib, u asosan, ayrim shaxslar bilan bog‘liqdir. Alo-hida fuqaro yoki oila, yuridik shaxsning yer hovlisiga qurilishlar bilan uy-joy, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo va boshqa tadbirkorlik faoliyatida binoning, imoratlar hamda pul vositalari, aksiyalar, obligatsiya-

lar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar mulki.

**Ekologik halokat** – ma'lum bir mintaqa miqyoslarida, atrof-muhitda kuchli noqulay o'zgarishlarga, og'ir iqtisodiy oqibatlariga, aholi va tirik mavjudotlarning ommaviy qirilishiga olib keluvchi tabiiy yoki antropogen xarakterdagi tabiat anomaliasi. Orol muammosi ham ekologik halokatning bir turidir.

**Elektorat** – saylovlarda ma'lum bir siyosiy partiyaga (siyosiy liderga) ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilarining majmui.

**Elita** (frans. elite – eng sara) – Jamiyat ierarxiyasida, fanda, madaniyatda, harbiy sohada va boshqalardagi oliy ijtimoiy guruhlar.

**Erkinlik** – 1) tabiat va jamiyat rivojlanishi qonunlarini tan olish asosida sub'ektning o'z ozodligining paydo bo'lish imkoniyatlari; 2) umumiy siyosiy hayot va jamiyatning butun faoliyati va uning a'zolari bilan bog'liq bo'lgan cheklanishlar yo'qligi; 3) davlatda inson holatini aniqlaydigan huquqiy normalar.

**Qadriyat** – 1) o'rab turgan dunyo ob'ektlarining xususiyatlari bilan emas, balki ularning inson hayoti va faoliyati sohasiga, manfaatlariga, ijtimoiy munosabatlariga jalb qilinganligi bilan belgilanadigan inson, guruh umuman jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga ega tushuncha; 2) bu ahamiyatni axloqiy tamoyillar va me'yorlar, ideal, ko'rsatmalar bilan ifodalangan baholash usullari va mezonlari; 3) narxi; 4) katta narxga ega bo'lgan narsa; Qadriyatning quyidagi turlari mavjud: universal (muhabbat, istiqbolli hurmat, xavfsizlik, bilim, milliylik, ozodlik, salomatlik va boshqalarga daxldor) qadriyat; moddiy va ma'naviy; ijobiy va salbiy; individual (shaxsiyatga oid), ichki guruhlariga oid (siyosiy, diniy) va umuminsoniy qadriyatlar.

Fuqarolik jamiyati asoslari: 9-sinf uchun darslik.  
V.H.Qo‘chqorov, A.T.Zamonov, N.K.Ismatova.

- Toshkent: .....016, - 96 b.

UO‘K: ....

KBK: ....

Qo‘chqorov Vahob Hoshimovich  
Zamonov Akbar Turg‘unovich  
Ismatova Nargiza Kamaritdinovna

Fuqarolik jamiyati asoslari  
9-sinf uchun darslik.

“Yangiyo‘l poligraf servis“

Muharrir Z.Zamonov  
Badiiy muharrir A.Zamonov  
Dizayner N. Ismatova  
Kompyuterda sahifalonchi N. Xushvakova  
Musahih Z.Zamonov

2016-yil 6 yanvarda andoza nusxasidan chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 70/90 1/16.  
Kegli 14. 12. shponli. “Tayms” harflarida terilib, ofset usulida bosildi. Bosma t. 6. Nash t. 6.  
nusvasi ..... bosildi. Buyurtma №....





